

A decorative border with a repeating floral pattern surrounds the page. The pattern consists of small, stylized flowers and leaves arranged in a continuous line.

Tadbirlar to'plami

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan ssenariy va tadbirlar

1. Alifbe bayram senariysi.
2. Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga bag`ishlangan ertalik
3. Assalom Navro`z" bayram senariysi.
4. Bolaligim – podsholigim
5. “Go`zallik va nafosat mujassam” mavzusidagagi tadbir senariysi.
6. “Gullar bayrami” tadbiri
7. Sinfdan tashqari o`qish darslarida “Vatan tuyg`usini shakllantirish”
8. “Gullar va Qushlar” bayrami
9. Mehrjon bayrami
10. Yangi yil ertaligi

Alifbe bayram senariysi.

1. Boshlovchi: Assalom mehmonlar mo‘tabar suyuk
Assalom ustozlar, nomlari buyuk

2-Boshlovchi: Assalom otalar, baxtim posboni
Assalom onalar, fidoyi joni

1-Assalom, balajon iqboli porloq. Bugun ilk bayramga yetishgan quvnoq

2-Sizlarga aytayin bir shirin tilak. Savodxonlik bayrami bo‘lsin muborak

- Assalomu alaykum aziz, mo‘tabar, muhtaram ota-onalar, ustozlar o‘quvchilar!

2- Barchangizni bugungi dilbandlaringizning shodligi-yu quvonchi bo‘lgan savodxonlik bayrami bilan chin qalbdan tabriklaymiz.

1- Sizlarga uzoq-umr, bolajonlarga baxtli davron porloq tole, nurli kelajak tilaymiz.

2- Endi esa ana shu tantanani ochish, yoshlarni qutlash uchun so‘zni maktabimiz direktoriga beramiz.

1-Keling azizlar endi bolajonlarimiz sizga o‘z bilim va san’atlarini nomoyish qilsalar siz miriqib tomosha qilsangiz.

Madhiya

2-Ayting qani azizlar

Baxtiyor o‘g‘il qizlar

Nechun keldik bu yerga

Nechun bor yosh ko‘ngilda?

1-o‘qituvchi: Bugun bizga zo‘r quvonch
Yurakka shodlik to‘lgan
Savodxonlik bayrami
Bizni bunga keltirgan

1- Qanday qilib savodxon

Bo‘lib oldingiz chunon?

2-o‘quvchi: Alifbe bo‘ldi sirdosh
Ilm yo‘lida yo‘ldosh
Sochdi ziyo nurini
Bo‘lib misol quyosh

3-o‘quvchi: Alifbeni chaqirsak
Baravar qarsak chalsak
Kelar bizga mehmonga
Shu ajoyib makonga

Hamma: Alifbejon kelaqol
Bizga mehmon bo‘laqol
(Alifbe kirib keladi)

Alifbe: Assalom bolajonlar
Aqli soz bilag'onlar
Bugun shodlik muborak
Savodxonlik muborak

Bolajonlar: Raxmat senga Alifbe
O'zing berding barini

Alifbe: Ayting nelar bildingiz
Ne sirlar o'rgandingiz
Menga sovg'a bo'lsin deb
Nelar tayorladingiz?

4-o'quvchi: Chiziqchalar chizishni
O'qishni va yozishni
Husnixat-u qiroat
Sendan o'rgandik faqat

Alifbe: Qani ayting nechta harf
Nechta tovush bor menda

5-o'quvchi: 29 harf bildik
30 tovush bor senda

Alifbe: Qani harflar so'zlasin
Tartib bilan tizilib
Bolajonlar so'zini
Eshitoy maza qilib
(Harflar chiqadi)

A. Asal shifo deydilar
Asal davo deydilar
Shuning uchun dardlilar
Doim asal yeydilar

B. Botir baliq ovladi
Bankasiga joyladi
Bobomga beraman deb
Kattasini sayladi.

D. Damin dalaga chiqib
Dov-daraxtga qaradi
Bog' yaratmoq istadi
Bobosidan o'rganib

- E.** Ergash, Erkin, Erali.
Erta, turib yugurdi
Endi qolishmas Vali
Uyqusini do‘ndirdi.
- F.** Farxod, Farida, Farrux
Tortar damba-dam oh-uh
Til rasmini chizolmay
Chekishadi g‘am anduh
- G.** Gulzor oralab Gulnoz
Gullar teradi asta
Mehrini qo‘shib dildan
Yasadi zo‘r guldasta
- H.** Hali-hali ko‘rasiz
Halimaning holini
Qorin ushlab kulasiz
Uning ochgan polini
- I.** Itim bor nomi bo‘ynoq
Qop-qora, yuz-bo‘yin oq
Irillab izimda u
Bo‘laylik deb do‘st-o‘rtoq
- J.** Jo‘ja boqar Jamila
Sariq, qora ola-bula
Jo‘jalarni ichida
O‘zi doim ovora
- K.** Karim kaklik, kakkuning
Rasmini chizib keldi
Kitobdagi suratni
Bildirmay yirtib keldi.
- L.** Layli, Laylo, Lobarxon
Juda qalin uchovlon
O‘yin o‘ynar ayrilmay
Bo‘lib dildan qadrdon
- M.** Moshvoy malla mushugum
Oftob ko‘rsa quvonar
Tirnab uyning eshingin
Hovlida ko‘zi yonar

- N.** Nondir aziz zo‘r ne‘mat
Bobolar qadrlang der
Nonni aylagan hurmat
Nondek aziz bo‘lar bil
- O.** Oydinda Oydin, Oygul
Oymomoga termuldi
Ayt, qaysimiz oqil deb
Oyga xo‘p savol berdi.
- P.** Paxta, paxta, paxtajon
Sen bilan to‘lsin xirmon
Kiyim kechak yog‘-bo‘yoq
Sendan bo‘lar begumon
- Q.** Qodir, Qosim qalin do‘st
Qorbo‘ron o‘ynadilar
Qarbobo yasab tunda
Savg‘a tayyorladilar
- R.** Rassom rasm chizadi
Raqqosa raqs tushar
Raketa yasasam ayt
Unda qay batir uchar
- S.** Salim soat so‘radi
Sabohat dedi qara
Asta qo‘lin uzatdi
Yurib qolsa deb zora
- T.** Tursunboyning tovug‘i
To‘qqizdan oshib ketdi.
Tursunoyning jo‘jasi
Unga qo‘shilib ketdi.
- U.** Uzum, behi, olmasi
O‘zim ekkanman aka
Bugun bog‘da hammani
Chaqirayin yemakka
- V.** Vali varrak yasabon
Ko‘kka uchirdi chunon
Vasilaning varragi
Boland uchar begumon
- X.** Xolbek, Xalil, Xotamning

Xolnisa xolasi bor
Adashtirmang Adhamning
Aziza ammasi bor

Y. Yo'lchi, Yo'ldosh kitobga
Mehr bergan a'lochi
Yo'q demasdan birovga
Yo'l ko'rsatar yo'l boshchi

Z. Zarifaning zo'ntigi
Buzilib qoldi tezda
Zokir uni tuzatib
Rahmat eshitdi qizdan

O' O'rik o'g'irlab bog'dan
O'rinboy qochib qoldi.
Oldidan chiqqach bog'bon
Lol, hayron shoshib qoldi.

G' G'ani, G'ulom g'ildirak
Dumalatar tinmayin
Onasi bo'lib halak
O'qing deydi kunma-kun

Sh. Shalolaxon, shalola
Ayt bu rayhonmi lola
Tabiat zo'r yaratgan
Qizil yoqut piyola

CH. Charos, Chaman, Chinnigul
Childirmani chaladi
Eshitsa qizlar butkul
O'ynagani keladi.

Ng Bodring, ko'ngil, singilda
Ng ni qo'shib o'qiymiz
Alifbening oxiri
Endi shunda to'xtaymiz

(Ota-onanalarga so'z)

Alifbe: Barakalla, yana nelar
O'rgandingiz bilgim kelar?

O'quvchi: Ona, vatan, Mustaqillik
Kitob, maktab, ustoz barin

Maqol, topshmoq tez ayrish
O'rgandik biz shular sirin

Qo'shiq: Onajon

She'r: Vatan

Vatan

Mening ozod makonim
Gullagan chin maskanim
O'zbekiston atalgan
Xazon bo'lmas chamanim

Bobolarim sevgan el
Momolarim bilgan el
Ajdodlari ardoqli
G'urur bilan to'lar dil

Mustaqil bo'lding bugun
Ketdi yurakdan tugun
Olmamga dong'i ketgan
Diyorsan baxti butun

Qo'shiq: Mustaqillik

Kuzning ilk kuni
Yurtimda bayram
Unutmas uni
Barcha shod-xurram

(1 sintabr-Mustaqillik kuni yozuvi)

Dono yurtboshi
Odil yo'l boshchi (president rasmi Gerb huma qushi)
Xumo boshimda
Nurini sochdi

Bayrog'im baland (O'zbekiston bayrog'i madhiyasi olib chiqiladi)
Hilpirar doim
Madhiyam kuylab
Kutayin tongim

Tegmasin ko'zlar
Yurtumga deyman
Baxtini ko'zlab
G'amini yeyman

(Ota-onalar so‘z)

She‘r kitobim-oftobim

Bilim-u saboq
Harni qorayu oq
Tilsimu jumboq
O‘rgatgan oftob
Kitob-bu kitob

Tarixi-u o‘tmish
Bahor, yozu qish
Sharafu olqish
Ko‘rsatgan shu tob
Kitob-bu kitob

Bobolarim kim
Momolarim kim
Nedan bu faxrim
Ketmasin baxtim
Ayrolgan shut ob
Kitob-bu kitob

1-Boshlovchi: Yana lapar, yallalar
Yangrating shod pallalar
Qarang davra qizidi
O‘ynaydigan pallalar

Lapar: Arka qizlar choqqonlashib galinglar
Go‘rali bu to‘yning tomoshosini
Shu to‘ylarda yaxshi hizmat atinglar
Hamma go‘sin to‘yning tomoshosini

Qarindosh-do‘g‘onlar atinglar hizmat
Dunyoda bo‘lg‘aysiz sog‘u-salomat
Mudom shu joylarga yog‘ilg‘ay davlat
Go‘rali bu to‘yning tomoshosini

Erka qizlar qizil gulday ochilsin
Xon atlasdan qo‘sha ko‘ylak bichilsin
Go‘rgan hayron qolib og‘zi ochilsin
Go‘rali bu to‘yning tomoshosini
(o‘yin bilan)

(Ota-onalarga so‘z)

2-Boshlovchi: Ha, aziz mehmonlar bizning yoshlarimiz haqiqiy xorazmliklar

san'atsevar bolalari qarang hazil-huzil ham joyida.

Chipra dalli: Qaqrada gumri in atar
Chipra dalli-dalli
Ushlab olsam kima yetar
Chipra dalli-dalli

Otiz dadim, chel dadim
Chipra dalli-dalli
Katmon dedim, bel dedim
Chira dalli-dalli

Chipra dalli-dalli ey
Chipra dalli-dalli

Hay-hay damaka galdim
Chipra dalli-dalli
Qaymoq yemaka galdim
Chipra dalli-dalli

Qaymoq bohona atib
Chipra dalli-dalli
Sani go'rmaka galdim
Chipra dalli-dalli

Chipra dalli-dalli ey
Chipra dalli-dalli

1-Boshlovchi: Yana siz o'zingiz sevgan asar, uning sizga yoqqan tomonlarini ham ko'rsatishga qodirsiz. Aql boylik (ertak)ni sahnalashtirish (Ota-onalar so'z)

2-Boshlovchi: Baxtli bolalalik bizda
Baxtiyor o'g'il qizda
Tinchlik bo'lsa elimda
Kiramiz omon yuzga

Qo'shiq "Bu juda soz"

1 o'quvchi chiqib "Ona allasi" rivoyatini aytadi.
(1 baddan 3 xil ashula aytilib keyin alla aytiladi)

1-qo'shiqchi: Ey Sultonim aziz boshing
Omon bo'lsin omon bo'sin
So'nmasin oyu quyoshing
Senga baxtli davron bo'lsin

2-qo'shiqchi: Oling qo'la toringiz
Kuylang dilda boringiz
Sovg'a bo'lsin sultonga

Har na dilda borimiz

3-qo'shiqchi:

Ho, yalla yallo
Jamalagi tillo
Bozor boradi qizgina
Do'ppi oladi qizgina
Nozu qarashma bilan
Do'ppi kiyadi qizgina

Oxirida bir kekxa kampir olib kelinadi.

Senga qo'ydim yaxshi ot
Uxla bolam allayo
Yaxshi niyatdir murod
Arka bolam allayo

Yurtga elga suyansang
Alla bolam allayo
Senga bo'lar zo'r qanot
Uxla qo'zim allayo

Yolg'iz otning changi yo'q
Bilgil qo'zim allayo
Changi bo'lsa dong'i yo'q
Uxla bolam alla

Ozod yurtning egasi
Arka qo'zim allayo
Obod uylar to'rasi
Ko'rar ko'zim alla

Unib o'sib ulg'ayib
Sulton bo'lg'il alla
Armon bilmay o'ksimay
Davron surgin alla

“Latifalar”

(Ota-onalar so'z)

Qo'shiq Ustozim

Ushlab qo'limdan
Ilm yo'limdan
Boshlagan so'zin
Mening ustozim

Onam kabi bosh
Mehri bir quyosh
Erkalar qizim
Mening ustozim

Harfu so'zlarni
Nurli izlarni

Sevib bizlarni
Atagan qo‘zim
Mening ustozim

Egib oshimni
Tilab yoshini
Qilayin yoshini
Dono ustozim

Raqs: Yigitlar ijrosida

Keyin maqol, topishmoq va tez aytishlar aytiladi.

Alifbe: Barakalla donolarim
Ishlari zo‘r a‘lolarim
Endi men ham yo‘l berayin
Shunday sovg‘a qilayin
(O‘qish, ona tili kitoblari kirib kaladi)

O‘qish: Assalom bolajonlar
Ilmga chanqoq bolalar
Endi menga qo‘l bering
Bo‘ling zo‘r bilag‘onlar

Aytib turli rivoyat
So‘zlab ming bir hikmat
Aqlingizni charxlayman
Ma‘rifatga chorlayman

Ona tili: Men ham sizga do‘st bo‘lay
Qolgan kamu ko‘st bo‘lay
Harf, tovush, unli undosh
Barin puxta o‘rgatay

Husnixat, bayon, insho
Menla bo‘lsangiz oshno
O‘rgataman yurakdan
Do‘st bo‘laman doimo

1-Boshlovchi: Azizlar mana farzandlaringizning sizga atagan sovg‘alari ham nihoyasiga yetib qoldi.

2-Boshlovchi: Biz bolajonlarga ularning ustozlariga rahmatu tashakkurlar aytib qolamiz

1-O‘quvchi: Amir Temur izlari bor
Navoiyning so‘zlari bor
Nodiraday qizlari bor
Buyuklarning Vatani bu

Suyuklarning Vatani bu
O‘zbekiston nurli bo‘ston
Elga doston elga doston

2-O‘quvchi:

Bobur kabi shoh-shoiri
Sino kabi malham dori
Manguberdi bahodiri
Ulug‘larning Vatani bu
Qutlug‘larning Vatani bu
O‘zbekiston nurli bo‘ston
Elga doston, elga doston

3-o‘quvchi:

Og‘abeki yangratsa soz
Abdullasi ayta she‘r so‘z
Gavhar qilsa gar noz
Buyuklarning Vatan bu
Suyuklarning Vatan bu
O‘zbekiston nurli bo‘ston
Elga doston, elga doston

4-o‘quvchi:

Gulla yashna aziz diyor
Bag‘ring bo‘lsin doim bahor
Baxtingga ko‘z tegmas zinhor
Buyuklarning vatan bu
Suyuklarning chamani bu
O‘zbekiston nurli bo‘ston
Elga doston, elga doston

1. Bobolarday oqil bo‘lishga
2. Yurtboshimday yurtni sevishga
3. Vatanimni ko‘zday saqlashga
4. Xalq ishonchin dildak oqlashga
5. Ustozlar o‘gitin dildan oqlashga
6. Yaxshi yomon ishni bilishga
7. Ona yurtga kerak bo‘lishga
8. Doim ulug‘ ishlar qilishga
9. Onam sutin dildan oqlashga
10. Kerak bo‘lsa jonim berishga

Hamma:

Qasamyod qilamiz
Qasamyod qilamiz
Qasamyod qilamiz

O‘qituvchi so‘zi bilan yakunlanadi.

Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga bag`ishlangan ertalik

Ertalik maktab zalida bo`lib o`tdi.

Ertalikni maktabimizning ilmiy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari o`chib berdi .
Sinfning a`lochi o`quvchisi oltinoy bobomiz haqida qisqa tushuntirish berdi.

Boshlovchi: - Ulug` bobokalonimiz Mir A.Navoiy 1441 yilning 9 Fevralida Hirot shahrida dunyoga kelganlar. Bolalik chog`laridan hammaning e`tiboriga tushganlar/ ko`p kitoblar o`qiganlar o`zlari ham she`r g`azal yozganlar.

Mahliyo – *Ko`p jahongiz ko`rgan bu dunyo*

Hammasiga guvoh yer o`sti.

Lekin do`stlar she`r ahli aro,

Jahongiri kam bo`lar rosti.

Oltinoy: (Alisherga qarab so`z boshlaydi). Ustoz, sizning she`riyat mulkida sulton bo`lib, jahonga o`zbek shon – shuhratini yoydingiz, turkiy zabonda ash`orlar bitgansiz. Ustoz ash`orlaringizdan aytib bersangiz.

Alisher: *Boshni fido ayla ato qoshiga*

Jismni qil sadqa ano boshiga

Ikki jahoniga tilarsan fazo

Hosil et ushbu ikkisin rizo

Tun – kunninga aylagil nur bosh

Birisin oy ayla, birisin quyosh

So`zlaridan chekma qalam tashqori

Xatlaridan qo`yma qalam tashqori

(Hamma o`quvchilar olqishlaydilar, “Ofarin”, ustoz, “Qulluq” – deydilar)

Nodira: Ustoz, siz yozib qoldirgan hikmatlarni biz e`zozlab o`rganamiz. Ruhsatingiz bilan ulardan o`qib bersak.

Til bilgan – el biladi.

Azamat: Chin so`z – e`tiborli, yaxshi so`z qisqa bo`lur.

Jur`at: Oz – oz o`rganib dono bo`lur, Qatra – qatra yilg`ilib daryo bo`lur.

Muhammadjon: Bilmaganni so`rab o`rgangan olim, orlanib so`ramagan o`ziga zolim.

(“ofarin, qulluq, barakallo” so`zlari aytib turiladi)

Boshlovchi: - Aziz o`quvchilar, buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning tavallud topgan kunlarida u kishini eng yaxshi fazilatlarini eslab ular ruhini shod etamiz. Mir Alisher Navoiy yoshligidan minglab misra g`azallarni yod bilganlar. She`rlar, g`azallar yozganlar. Hozir Alisher Navoiyning shoir Lutfiy Bilan uchrashuini sahna ko`rinishi orqali ko`rsak.

(Sahnada Shoir Lutfiy o`tirib she`r yozayapti)

Alisher: - Assalom ustoz.

Lutfiy: Q – Barakallo, o`g`lim, barakallo. Biz faqirni ko`rgani, mamnun qilgali kelibsen. Sen kabi aqlli boadab o`g`lonning suhbatini bilan dilimni ochay, ash`oringni tinglay.

Alisher: Orazin yopg`och ko`zimdin sochilur har lahza yosh.

Bo`ylakim paydo bo`lur yulduz nihon bo`lgach quyosh.

Lutfiy: - “Ofarin o`g`lim”, Qasam tangrigakim, agar imkon bo`lsa edi, men o`zimning fors va turkiyda aytgan o`n ikki ming baytimni shu g`azalga almashar edim,

ham ayni zamonda o`zimni ulug` maqsadga erishgan deb hisoblar edim.

Ruhsora: - Alisher yoshligidan do`sti Husayn Bayqaro bilan inoq, ahil, do`st bo`lgan, birga o`ynagan va birga maktabga borgan.

Sarvinoz: - *Hatto ikki oila*

*Bir-birini hurmat ila
Tez-tez yo`qlab kelishar
Mehmon, mezbon bo`lishar*

*Shunda ota-onasi
Topib qulay xonasin
Navro`z, hayit kunlari
Yig`ilib yaqinlari.*

Boshlovchi: - Aziz o`quvchilar, hozir “Alisher bilan bulbul” nomli sahnalashtirilgan rivoyat bilan tanishamiz va bobomiz o`zlariga qanday taxallusni tanlaganini bilib olamiz. (sahnada Alisher kursida o`tirib she`r yozayotgani ko`rsatiladi).

Boshlovchi: - Olgari zamonda G`iyosiddin kichkina degan kishining Alisher ismli o`g`li bo`lgan ekan u yoshligidan uddaburro, ziyrak bo`lib o`sibdi. To`qqiz yoshga to`lganda esa she`rlar yoza boshlabdi. Odamlar (bola o`ziga) u yozgan she`rlarni quloq berib tinglaydigan bo`lishibdi. Lekin bola o`ziga hali tahallus tanlamagan ekan. Alisher bir kuni yangi she`rlarini yozibdidida, uni boqqa chiqib, baland ovoz bilan o`qib boshlabdi.

Alisher: - *G`urbanda g`arib shodmon bo`lmas emish
El anga shafiqu mehribon bo`lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa
Bulbulga tikondek oshiyon bo`lmas emish*

Boshlovchi: - Gul shohida o`tirgan bulbul Alisherning yoqimli ovozini eshitib qolibdi. Yosh shoirning goh qo`ng`iroqday jarangdor, goh tong shamoliday mayin ovozi bulbulni o`ziga maftun etibdi.

Munisa: Bulbul: - Ey, xushovoz shoir, sen o`qigan she`rlar bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Ismingni bilsam bo`ladimi?

Alisher: - Men Alisherman.

Bulbul: - Bildim, bildim, yangi chiqqan shoir ekansizda. Endi o`zingizga chiroyli bir nom tanlab, she`rlaringizni oxiriga taxallusingizni qo`ying.

Boshlovchi: - Alisherga bulbulning boyagi “navo” degan so`zi yoqib qolibdi. Shundan keyin yozgan g`azallariga o`z taxallusini “Navoiy” deb qo`shib aytadigan bo`libdi.

Shu bilan ertagimiz tugadi.

Assalom Navro`z” bayram senariysi.

1. Jarchilar. Qo`chqorvoy, Jur`at.

*Odamlaru-odamlar. Eshitmadim demanglar.
Eshitmasdan qolmanglar, O`zimizni Navro`zni
Navro`zi dilafrozni shodon kutib olamiz.*

Katta bayram qilamiz. Xe-xe-xey.

1-Boshlovchi: Oltinoy.

Salom senga, Navro`zi olam

Salom senga bahor ayyomi

Senda olqish, senga sharaf-shon

Yasha rayhon, nahor bayrami.

Assalomu alaykum, qadrli bayram qatnashchilari hurmatli mehmonlar! Mana, bugun diyorumizda bayram. Bahor tarovodi bilan yashagan yurtimiz go`shalarida o`zgacha shodiyona. Chunki Navro`z – yangi kun, yasharish, yangilanish faslidir.

2-Boshlovchi: Sh: Assalomu alaykum hurmatli ko`zlarida bir olam quvonch bilan bizlarga boqib turgan muallima ustozlar, do`stlar tengdoshlar. Navro`z necha ming yillardan beri nishonlanib kelinayotgan turkiy xalqlarimizning azaliy bayramidir. Eng go`zal odatlar insoniy qadriyatlar bu ayyomda o`zini namoyon etadi.

Kishilar bir – birlariga shirinso`z bo`ladilar, ginalar unitiladi. Bas shunday ekan ham bugungi bayram kechamizni yaxshi kayfiyat bilan o`tkazaylik.

1-Boshlovchi: Bayramimizga Navbahor bilan Navro`zoy ham tashrif buyurishgan. Ularni kutib olaylik.

Salom bahor, salom Navro`z

Marhabo, Hush kelibsiz!

Navbahor: Mana men go`zal bahor

Munisa: *Yetib keldik sizlarga*

Jon kiritdim daraxtlaru

G`unchalar, ildizlarga

Navro`zoy: - Sarpo kiydobog` dalam

Sarvinoz: *Qirda yoqut piyolam*

Oftob shulasi alvon

Kamalak ko`kda narvon.

1-Boshlovchi Shahnoza: Oltinoy bu go`zal bayramni gullarsiz tasavvur qilish qiyin.

2-Boshlovchi: Oltinoy. – Ha, Shahnoza, bugun davramizga ular ham tashrif buyurishgan. Ularni kutib olaylik. Gullar she`r aytadi.

Ruhsora: 1) *Keldi bahor, keldi ko`klam*

Bizlar ko`klam elchisi.

Bizni bahor boshlab keldi.

Navro`z – bahor elchisi.

Maftuna: 2) *Gullar har xil, Ra`no, Nargiz.*

Hamda safsar Bo`tako`z

Aslidachi inson guli

Jigarbandi, siz biz.

Mahliyo: 3) *Navro`z kabi yashnab yursin*

Dugonalar o`rtoqlar

Ko`zin ochsin do`stlik, mehr

Ilm kabi buloqlar.

Lobar: 4) *Sayli xurramdir bugun*

Navro`zi olamdir bugun

Qon-qarindosh yoru do`stlar

Ulfati jamdir bugun.

Nodira: 5) *Hush kelibsan, marhabo*

Jonga-jon Navro`zimiz

Dillar aro kuy-navo

Jonga-jon Navro`zimiz.

Qo`shiq:

1. **Boshlovchi:** *Birdan osmon qorayib ketdi*

Bosdi paxmoq bulut qalasi

Ufqlarda chaqmoq yilt etdi

Sharroz quydi bahor elchisi.

Sahnada Bo`ron paydo bo`ladi.

Bo`ron: *Hukimni o`tkazaman*

Zahmatlar yetkazaman

J.Azamat

Navbahor: *Yo`q-yo`q, Bo`ronjon, shoshmagin*

Ko`p haddingdan oshmagin

Qahring qattiq bo`lmasin

Gul, chechaklar so`lmasin!

2. **Boshlovchi:** *Xafa bo`lma Navbahor*

Yoningda do`stlaring bor.

1- **Boshlovchi:** *Quyosh boboni chaqiramiz.*

Atrof nurafshon bo`lsin

Borliq nurlarga to`lsin.

Quyosh bobo: *Labbay, aziz bolalarim*

Guli rayhon lolalarim.

S.Temur *Ne nohushlik ro`y berdi.*

Boshlovchi: *Quyosh bobo Bo`ron bolalarni qo`rqitdi.*

Quyosh bobo: *Ey, sho`x qaysar Bo`ronvoy*

Ozor berma bog`larga

Agarda sen mard bo`lsang

Boraqol muz tog`larga.

Bo`ron: *Xo`p bo`ladi bobo quyosh.*

So`zingizga eggum bosh: Xayrlashib chiqib ketadi.

Boshlovchi: Bolalar endi navbatni bahor haqidagi kuy qo`shiq'larga bersak. Marhamat.

“Uch patir yopdim”, “Bog`imda gullar chaman”, “Boychechak”, “Yomg`ir yog`oloq” kabi qo`shiqlar o`quvchilar tomonidan kuylanadi. Shundan keyin ertalik yakunlanadi.

BOLALIGIM – PODSHOLIGIM

Qo'shiq bilan bolalar davradan joy oladilar:

- Keling, do'stlar,

Keling, do'stlar,

Davramizga marhabo.

Quvnoqlikda, zukkolikda

Aql o'sar kun aro.

Chiroyli kiyingan bir o`g`il, bir qiz - boshlovchi-o'quvchilar davraga chiqib

kelishadi.

1-boshlovchi:

*- Madhiya kuylanar, uning sadosi .
Muazzam binoga sig'may ketadi.
Vatan bolalarin jo'shqin navosi
Uzoq-uzoqlarga borib yetadi.*

2-boshlovchi:

*- Men kuylab, quvonib bitaman doston,
Tilimda umrbod shu bo'lib takror:
«Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor».*

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kuylanadi. Barcha ishtirokchilar Madhiyaga jo'r bo'lishadi.

1-boshlovchi: - Azamat, bugungi tadbirimizni noan'anaviy tarzda boshlasak, nima deysiz?

2-boshlovchi: - Juda yaxshi bo'lardi-da, Azizaxon.

1-boshlovchi: - Unday bo'lsa, onajonlarimizni, ustozlarimizni bolalar saltanatiga chorlasak, qanday bo'larkin?

2-boshlovchi: - To'g'ri aytasiz, kattalarimiz tadbirimiz davomida o'z bolalik davrlari xotiralarini yana bir bor eslaydilar.

1-boshlovchi: - Aziz mehmonlarimiz, marhamat, tinglab dam oling.

Sahnada bolalar «Bekinmashoq» o'yinini o'ynayotgan bo'ladilar.

1-boshlovchi: - Mazkur yilimizning muhtaram Prezidentimiz tomonidan Yoshlar yili deb nomlanishi munosabati bilan joylarda bo'lib o'tayotgan turli tadbirlar haqidagi maqolalarni kundalik ommaviy axborot vositalari orqali o'qib, eshitib turibmiz.

2-boshlovchi: - Bular orasida, ayniqsa, o'ramizdagi mehrga tashna bolajonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan tayyorlangan sovg'alarning Qoraqalpog'iston Respublikasi va mamlakatimizning barcha viloyatlariga yuborilgani diqqatga sazovordir.

1-boshlovchi: - Bu sovg'alar Respublikamizda mavjud barcha mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, mahallalardagi ota-onasiz qolgan o'g'il-qizlar uchun, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun, «SOS» bolalar mahallaridagi kichkintoylar uchun mo'ljallangan.

2-boshlovchi: -Shu o'rinda buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy hazratlarining: «Ko'ngli yarim insonlarning dardiga hamdard bo'lish, uning ruhini ko'tarish - bamisoli butun jahonni obod qilish bilan barobardir», degan purma'no so'zlarini eslash kifoyadir.

1-boshlovchi: - Ha, bunday serhimmat bo'lish, farzandi ertasini o'ylab yashash, unga umri boricha kamarbasta bo'lish o'zbekimga xos fazilatdir. Shunday emasmi?

2-boshlovchi: - Juda to'g'ri.

O'zbek xalqi - sahovatpesha xalq.

Bir bola: Ey, bolalar, kelinglar, endi qadimgi o'yinlardan biri - «Oq terakmi, ko'k terak» o'yinini o'ynaymiz.

Hamma bolalar: - O'y-nay-miz.

O'yin 5-6 bog` o'ynalib, so'ng nihoyasiga yetadi. Bu o'yindan maqsad bolalarda

*o 'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlash.
Sahnaga boshlovchilar chiqib kelishadi.*

1-boshlovchi:

*- Karnay-surnay chalinganda
To'ydan dazak beradi.
Har tomondan maktab tomon
Ko'plab mehmon keladi.*

2-boshlovchi:

*- Karnay-surnay sadolari
Eshitilmas besabab.*

*Ushbu kungi tantanaga
«Yoshlar yili»dir sabab.*

Shu payt jarchilar kelib qoladi:

1-jarchi:

*- Bolalaru bolalar,
Eshitmadim, demanglar.*

2-jarchi:

*- Bugun saroyimizda katta bayram. hammangizni saltanatga chorlaymiz.
Jarchilar "Palov" qo'shig'ini kuylashadi. Bu paytda bolalar saltanatga yig'ila
boshlashadi. Saltanat shohi sifatida shohona kiyingan o'quvchi so'z oladi.
Shoh: - Bolalar, do'stlarim, bugun hammamiz uchun katta tantana. Yoshingiz yettidan
oshib qoldi. Boshlang'ich maktabga kelganingizda ham uch chorak bo'libdi-ya. Bugun
har biringiz shu kunlar ichida qanday bilimga ega bo'lganingizni namoyish
qilmog'ingiz va kelajakdagi o'z orzu-umidlaringizni aytmog'ingiz kerak.*

Bolalar: - Xo'p bo'ladi, juda yaxshi.

"Maktab" qo'shig'i kuylanadi.

Bolalar kelajakda kim bo'lmoqchi ekanliklarini, sevgan kasbu hynarlarini aytadilar.

1-o'quvchi: - Bilasizmi, shohim, men katta bo'lganimda Vatanimning tinchligini qo'riqlaydigan chegarachi bo'lmoqchiman.

2-o'quvchi: - Men uchuvchi bo'lmoqchiman.

3-o'quvchi: - Men esa go'zal binolar quruvchisi.

4-o'quvchi: - Mening esa orzuim yozuvchi bo'lib, Vatan haqida go'zal asarlar yozish.

5-o'quvchi:

- Jahonning boshida yashagan havas,

Tangri tog'laridan oqqan ezgulik.

Istiqloldan ruhing topadi samar,

Hamma: - *Sen buyuk Vatansan, Vatan degulik.*

6-o'quvchi:

- Ozod Vatan o'g'il-qizimiz,

Charaqlagan oy-yulduzimiz.

Tinchlikni kuylab, do'stlikni kuylab,

Istiqboling ko'z-ko'z qilurmiz.

7-o'quvchi: - Bolalar, men katta bo'lganimda Prezident bo'lmoqchiman.

Shoh: - Inshoolloh, niyatingga yet.

"Prezident" qo'shig'i kuylanadi.

8-o'quvchi: - Bolalar, men katta bo'lganimda qo'li gul tikuvchi bo'lmoqchiman.

9-o'quvchi: - Men esa pazanda bo'lib, shirin taomlar pishirib, el og'ziga tutsam

deyman.

10-o`quvchi: - Men esa Nodirabegimdek shoirai-davron bo`lmoqchiman.

11-o`quvchi: - Mening katta bo`lganimda shifokor bo`lish niyatim bor. Axir aytishadiku: “Farzandlari sog`lom yurt – qudratli bo`lur”.

12-o`quvchi: - Men esa onajonlarimizdek olijanob, mehribon, g`amxo`r inson bo`moqchiman:

- *Vatanni “Ona”, deb bekor autilmas,
Ona buyurganda yo`ldan qaytilmas,
Sen o`zing Ka`bam – Baytul muqaddas,
Payti keldi aytmoqqa gapning xonasi,
Ey, o`zbek onasi, o`zbek onasi.*

“Onalar” haqida qo`shiq kuylanadi.

13-o`quvchi o`qituvchiga yuzlanib: - Men katta bo`lganimda xuddi siz kabi o`qituvchi bo`lmoqchiman. o`zimizga o`xshagan bolalarga ta`lim-tarbiya bermoqchiman:

*Quchoq ochib kutib olgan,
Bolaligim tutib olgan,
Alifboning yorqin yuzin
Shunda ko`rgan edi ko`zim.
Berdi odob, berdi ta`lim,
Mehribonim muallimim.*

Qizlar ijrosida S.Rahmonova aytgan “Ustozlar” qo`shig`I tinglanadi.

2-boshlovchi:

- *Dedilar dunyoda asli kim aziz?
Aydilar: Ustozdir, ustoz begumon.
Tag`in aytdilarki, sira-shubhasiz,
Ustozin qadriga yetolgan inson.*

Magnitofondan mungli kuy taraladi.

1-boshlovchi: - Vaqt qadri, uning inson hayotidagi o`rnini, ta`sirini kattalar juda yaxshi his qilishadi. Tabrik uchun so`z maktabimiz ustozlari jamoasi rahbari, bilim dargohimiz direktoriga.

Direktor tadbir qatnashchilarining asosini tashkil etgan bolalarni mazkur tadbir bilan qutlab, o`z davrining yoshlari haqidagi xotiralaridan tarbiyaviy ahamiyatga molik so`zlarni gapirib beradi.

Shundan so`ng so`zga chiquvchilar bolalikning beg`ubor onlarini, yoshlik xotiralarini eslab, hayotiy misollar keltiradilar.

2-boshlovchi: - Shuning bilan “Bolaligim - podsholigim” deb nomlangan bayram tadbirimiz o`z nihoyasiga yetdi. Biz bolalarning keyingi o`qishlariga omad tilaymiz. Hech qachon bolalikning quvnoq damlari ularni tark etmasligini juda-juda istab qolamiz.

Raqs, qoshiq, o`yin-kulgi bilan tadbir yakunlanadi.

**“Go`zallik va nafosat mujassam” mavzusidagagi tadbir
senariysi.**

(Boshlang'ich sinf o'quvchilariga moljallangan sahna kormishi)

Maktab sahnasida bahoriy go'zallik ufurgan. Savatlarda chiroyli gullar, guldastalar. Bayram mavzusiga bag'ishlangan devoriy gazetalar, tabiat, uning go'zalligini asrash haqidagi shiorlar kishida bahoriy kayfiyat uyg'otadi.

(Ohista musiqa yangraydi. Sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi).

1-boshlovchi (gullarga ishora qilib): - Do'stim, qarang, bu qadar go'zal manzara. Bu qadar go'zal gullar. Bular tabiatning chin mojizasi emasmi?

2-boshlovchi: - Ha, to'g'ri aytdingiz, gullar haqiqiy go'zallik timsolidir. Bugungi bayramimiz ham ana shu tabiatning nodirmo'ljizasi- gullar nomi bilan ataladi. Qarang, bayramga qancha mehmonlaryig'ilishgan. Keling, ular bilan salomlashaylik.

1-boshlovchi:

-Assalom, deganda ochilgay gullar,

Assalom, deganda sayrar bulbullar.

Assalom, deganda quyosh'kuladi,

Dillarga ezgulik nuri inadi.

2-boshlovchi (qo'tt ko'ksida):

-Assalom, davramizning siz azizmehmonlari,

Assalom, ilmu fanning sohibu davronlari!

Mo'tabar otaxonu onaxonlar, jlom!

'uzlarida kulgu balqqan bolajonlar,

ishlovchiar ta'zim Ha sahnadan \hadi. Ohista musiqa yangraydi.)oshlariga gulchambar taqqan qizaloqlar raqsga tushadilar).

1-o'quvchi:

-Tinchlik bo'lsin dunyoda,

Olam gullarga toisin!

Biz kabi bolajonlar, Bog'larda o'ynab kulsin.

2-o'quvchi;

-Bayramlarni sevamiz,

Bayramlar bizda bisyor.

Ezgu qalblar sevguvchi,

Yurtda hamisha bahor.

1-boshlovchi:

- Bolalar, qaranglar, davramizga kim mehmon bo'lib keldi. *(Sochlariga gul, tol bargak taqqan Bahoroy tashrif buyuradi va egilib salom beradi).*

O'quvchilar (jo'r ovozda): - **Axir** bu Bahoroy-ku.

2-boshlovchi

Xush kelibsan, Bahoroy!

Bahoroy (ta'zim qilgan holda):

Mana men, go'zal bahor,

Yetib keldim sizlarga.
Jon kirgizdim daraxtiaru
Gunchalar, ildizlarga.
Oppoq o'rik gullarim bilan,
Iliq quyosh nurlarim bilan,
Kamalakday yeffi tovlanib,
Yashillanib, goh olovlanib,
Mehmon bo'lib keldim, bolalar.

(Bolalar «Hey, iola» qoshig'ini ijro etishadi).

1-boshlovchi: - Bolajonlar, gullar haqida she'rlar ham bilasizmi?

Bolalar (jo'r boVshib): - H-a-a!

(Ular birin-ketin she'r o'qiydilar).

1-o*quvchi: - Boychechak. GTayratiy she'ri.

-Bahordan berding darak₇

Oson bo'lmadi kutmak.

Senga talpinar yurak,

Sevgan gulim, boychechak.

Hamma:

Seni koYdim bogiarda,

Baxmal adir, tog'larda.

Yam-yashil o'tloqlarda, .

Sen husnga boy chechak.

Hamma:

Boychechak, boychechak,

Sevgan gulim, boychechak.

- Boychechak, boychechak,

Sevgan gulim, boychechak

. **3-o*quvchi:**

- Lola, lola, lolajon,

O'sar joying dalada.

Lola, lola, lolajon,

Chidadingmu jalaga?

Jala yog'sa qoYqmading,

Sellar yog'sa qoYqmading.

Chiroyini ochay deb,

Qizlar taqsa qoYqmading.

(Sahnaga o'quvchiiar bar xil gullar timsolida kirib kelishadi).

Gullar (birgalikda):

Keldi bahor, keldi bahor,

Bizlar - bahor elchisi.

Bizni bahor boshlab keldi,

Gullar - bahor kuychisi.

(Navbat bilan she'r o'qiydilar).

Chuchmoma:

Chuchmomaman, chuchmoma,

Ochilaman siz uchun,

Xushbo'y hidim taratib,

Ko'zingizni yayratib.

Binafsha:

Menman go'zal binafsha,

Go'zal bahor qiziman.

Erta bahor ochilib,

Dillarni yayrataman,

Bog'lami yashnataman.

(O'quvchilar ijrosida «Ha-yu chittigul» qo'shig'i ijro etiladi).

(Bog'bon ota kirib keladi va gullarga razm soladi hamda ular haqda bolalar bilan muloqotga kirishadi).

Bog'bon ota: - Bolalar, siz gullarni sevasizmi?

Bolalar: - **Ha!**

Bog'bon ota: - Ularga bir razm soling-a. Qanday go'zal, qanday chiroyli. Endi gullar haqidagi fikringizni bilmoqchiman.

1-o'quvchi: - Bobojon, gul bor joyda go'zallik, tinchlik, tabassum va shodlik hukm suradi.

2-o'quvchi: - Go'zal tabiatni gullarsiz tasavur etish qiyin. Shuning uchun ularni doimo asrab-avaylashimiz, ko'kartirishimiz va ko'paytirishimiz lozim.

3-o'quvchi: - Dalalarda, gulzorlarda gullarni uzishdan ko'ra asrab-avaylasak, bu chin go'zallikni asrash emasmi? Uzsak, ular so'lib qoladi, undan ko'ra ko'zimizni quvontirib, ochilib tursa, qanday yaxshi. Ularni payhon qilishdan o'zimizni tiyaylik.

4-o'quvchi: - Haqiqatan ham gullarga, nainki gullarga, balki tabiatning barcha yashil boyliklariga mehrlil bo'lmoq kerak. Insonlarning tabiatga shafqatsiz munosabati uchun ham hozirda yuzlab o'simlik turlari «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Bog'bon ota: - Barakalla, bolajonlarim! Sizlarning teran fikrlaringiz meni xursand qildi, Siz kabi gul 'shaydolari kelgusida yurtimizni go'zal chamanzorga aylantiradi. Men bunga ishonaman.

(Bolalar «Gulchiman» qo'shig'ini kuylashadi. Bog'bon ota xayrlashib chiqib ketadi).

1-boshlovchi: - Bolalar, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling-chi.

- Qaysi gulning nomida parrandaga o'xshatish mavjud?

(Gulto'jixoz).

- Qaysi gul kechqurun ochiladi?

(Namozshomgul).

- Uy hayvonlaridan birining og'ziga va ko'ziga o'xshatilgan gulning nomini toping-chi?

(Itog'iz, b&tako'z).

(Sho'x musiqa chalinadi, bolalar raqsga tushadilar).

O'qituvchi: - Bolalar, kelinglar, endi «Gul bazmi» o'vinini o'vnamiz.

Qani, davrani kengroq olaylik-chi.

Musiqa yangraydi. Bolalar yarim doira shaklida tizilishadi. Bir o'quvchi davra bo'ylab raqsga tushadi. Musiqa ohanglari sekinlashadi. U xohlagan ishtirokchisi qarshisida to'atab qo'lidagi gulini unga uzata turib, she'r

o'qiydi:

Chaman-chaman ochilar,
Bahor сподЧ gul-lola.
Gulni yaxshi ko'Yadi,
Katta-kichik har bola.
Men gul tutdim siz uchun,
O'ynab bering biz uchun,
deya gulni berib, davraga qo'shiladi.
Gul olgan o'Vinchi unga qarata deydi:

- Gul bergan qo'llaringdan,
Aylanay bo'vlaringdan.
(U ham tengdoshining harakatini qaytaradi).

-Hilolajon, Hilola,
Tog' boshi to'la Ida.
Bahor tuhfa etibdi,
Terib ding, dugona. (Oyin shu tariqa davom etadi).

O'qituvchi: - Bolajonlar, endi esa gullar haqidagi bilimingizni namoyish etasiz. Savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar haqiqiy gulsevarlar hisoblanib, ularga chiroyli guldasta sovg'a qilinadi.

Gullarning qanday turlarini bilasiz? Shu haqda so'lab bering.

1-o'quvchi: - Madaniy gullar, dala-qirlarda o'suvchi gullar, butali gullar, xonada hamda suvda o'suvchi gullar.

2-o'quvchi: Qo'qigul, bo'ztikan, moychechak, tugmachagul, lolaqizg'aldoq, botako'z kabi gullar qiru adirlarda o'ssa, atirgul, kala va chinnigul kabi gullar gulzorlarda o'stiriladi. Go'zal nilufarni esa suvda o'sishini hamma bilsa kerak. Siren, atirgul va na'mataklar butali gullar turkumiga kiradi.

3-o'quvchi: - Begoniya, kaktus, fuksiya, gulisumbul va yorongullar keng tarqalgan uy o'simligi

bo'lib, parvarish qilishda ularning kelib chiqish vatanini bilgan holda xonalarda shu o'limlikka mos muhit yaratish lozim bo'ladi. Ular asosan deraza tokchalariga, yorug' tushib turadigan joylarga qo'yiladi. Xonada o'stiriladigan gullarni sopol gultuvaklarga ekan ma'qul. Bizning O'zbekiston sharoitida gullarni nafaqat uy(xonalar)da, balki, hovlilarda ham, bog'u gulzorlarda ham parvarish qilish keng yocflga qo'yilgan.

1.O'qituvchi: - Barakalla, savollarga juda to'g'ri javob berdingiz. Mana bu gullar sizlarga. (O'quvchilarga chinnigul hadya etadi)*

2-boshlovchi; - Aziz o'quvchilar, gullar tabiatning haqiqiy mo'jizasi. Ularning go'zalligi insonlarni azaldan maftun etib kelgan. Shuning uchun ham «gul» so'zi hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Hatto farzandlarimizning ismlarini ham shu so'z birla qo'shib aytamiz. «Gul» so'zi bilan boshlanuvchi ko'plab ismlar sizga tanish. Qani, ulardan bir nechtasini aytib o'ting-chi!

1-o'quvchi: - Gulnora, Gulchehra, Gulruh, Gulandom, Gulasal, Gulbodom...

O'qituvchi: - Yashang. Ko'Vdingizmi, bolalar, qizlarimizning gullar bilan qo'shib atalguvchi qanday go'zal ismlari bor. Gul nafaqat, go'zallik ramzi sifatida, balki buyuk muhabbat, nafosat ramzi sifatida ham qo'llaniladi. Hatto maqollarimizda ham buni uchratishimiz mumkin. Shunday maqollardan sizlar ham bilasizmi?

(O'quvchilar maqollar aytishadi).

2-o'quvchi: - Ona bilan bola - gul bilan lola.

3-o'quvchi: - Odamning ko'ngli guldan nozik.

4 o'quvchi: - Go'dakdan gul nidi keladi.

I O'qituvchi: - Barakalla. Aziz o'quvchilar, mana bugun ajoyib tadbir - «Gullar bayrami»ni o'tkazdik. Gullar haqida siz bilan ancha narsalarni bilib oldik. Sizning har tomonlama bilimdonligingiz meni nihoyatda xursand etdi. Tadbirga munosib tayyorgarlik ko'rganingiz uchun sizlarga katta rahmat. Bugungi bayramga yakun yasas ekanman siz, zukko bolajonlarga eng yaxshi tilaklar tilab qolaman. Doimo alo baholarga o'qing, hamisha guldek ochilib yuring. Bahoriy kayfiyat barchangizni sira tarketmasin! (O'quvchilarga sovg'alar, tadbirda ishtirok etgan mehmonlarga gullar taqdim etiladi. Mayin kuy sadolari ostida qatnashchilar tarqaladilar).

Mavzu: “O`zbek tili ta`limi jarayonida fanlararo bog`lanish masalalari”

*Go`zallikni tavsif etar ona tilim,
Bu Navoiy, Boburlarning tili bo`lgan,
Qolaversa xalqimizning dili bo`lgan
Senga cheksiz hurmatim bor jonu dilim
Sensiz menga qorong`idir, yetti iqlim.*

Ona vatanimizni gullab-yashnashi uchun ona tilimizni sevib, xalqimizni serjilo, boy adabiy merosini bilishimiz va uni o`quvchilarga o`rgatmog`imiz kerak. Bolalikda olingan bilim, o`rganilgan xalq ertaklari, xalq qo`shiqlari toshga o`yilgan naqshdek biz umr yodda qoladi. Shundan kelib chiqib yangi pedtexnologiyalardan foydalangan holda ona tili, o`qish darslarida o`zbek tilini mukammal o`rganishga e`tibor berib bormog`imiz kerak. Shu maqsadda men 1-sinfda o`qish darslarida fanlararo bog`lanish asosida o`quvchilarga ta`lim berishni maqsad qilib oldim. O`qish fanidan bir soatlik dars ishlanmasi.

“Gullar bayrami” tadbiri

1. Madhiya kuylanadi.

O`qituvchi: Gul bayrami keng ma`noda tabiat go`zalliklarini muhofaza qilish aholi yashaydigan joylarni obodonlashtirish ya`ni gulzor va chamanzorlarga aylantirib, tevarak atrofni chiroyli qilishga ko`mak beruvchi muhim tadbirlardan biridir. Boshqacha qilib aytganda tabiatdagi go`zal mo`jizalarning gulga bag`ishlangan shodiyonasidir. Gul hayot ko`rki shodlik manbai bo`lgani uchun ham, gul bilan uchrashish, xursandchilik, baxtiyorlik demakdir. Gul bayramini o`tkazishdan asosiy maqsad, shahar ko`cha hovli bog`chalar maktablar va boshqa muassasalarni ko`kalamzorlashtirish manzarali va chiroyli gul navlarini ko`paytirishga yordam berishdir. O`quvchilarni jonajon o`lkaga Ona-Vatanga, alvon-alvon gullarga bo`lgan muhabbatini oshirish. Tabiatning betakror go`zalligini sevishga, uni asrab ardoqlashga, tevarak-atrofimizdagi tabiatni toza, saqlashga, xonaki gullarni to`g`ri parvarishlashga, ularning turlarini o`rganish va o`rgatish orqali go`zallik faqat bizning o`lkamizda borligini aniqlash va milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishdan iborat.

Hurmatli, mehribon ota-onalar, aziz ustozlar o`quvchilar gul bayramiga hush kelibsiz, sizlarni ushbu tantana bilan tabriklayman.

Marhabo, azizlar

Bahorni maqtab

Qushlar sayraydi

Bahor qo`ynida

Barcha yayraydi

Bahor qo`ynida

Bahor valsi musiqasi

Boshlovchi: Assalomu alaykum mehribon ota-onalar!

Assalomu alaykum mehdaryo ustozlar!

Aziz o`quvchilar. Gul bayramiga xush kelibsiz! Mana o`lkamizga bo`ychechak va chuchmomalardan gulchambar taqib, fasllar kelinchagi Bahor kirib keldi. Baxor yasharish va yangilanish fasli. Bahor tabiatning qayta jonlarishi dalalarda mehnat mavsumining boshlanishidir.

Boshlovchi: *Odatda oftob ham,*

Yo`lin boshlar salomdan,

Qo`limiz ko`ksimizda

Assalomu alaykum

Dunyoning eng chiroyli

Gullari –bizmiz

Gullasin shirin turmush.

Omon bo`lsin yurtimiz.

Xush kelibsizlar! Davramizning to`ri sizlarniki! Bugun, biz o`zimiz tayyorlagan “Gullar bayrami” tadbirimiz orqali ko`ngillaringizni shod etsak o`zimizni baxtiyor xis etardik. Hurmatli gulsevarlar marhamat.

Boshlovchi: *Bugun kurtak o`qir ertak*

Bahor keldi, bahor keldi
Sochi tol-tol, silkinar tol
Bahor keldi, bahor keldi

Boshlovchi: Bolalar davraga hozir bahoroyni chaqiramiz.

Bolalar: Bahoroy, bahoroy, bahoroy

Bahoroy: Musiqa

Men dala bog`larni uyg`otaman. Daraxtlar kurtagini sharbatga to`ldiraman. Qushlaru, hayvonlar bexalovat bo`lib qoladilar. Hu-u ana chumoli ham uyalaridan chiqib, tirikchilik tashvishiga tushib qoldilar.

- Qani, bolalar kim mening do`stim bo`lsa, men tomonga shoshilsin. Faqat shartim shuki, bahor chehcaklari haqida she`r aytib bersin.

1-o`quvchi: Bahoroy, avval bizga Bahor elchilarini nomlarini aytib bermoqchi qani....

Ochildimi baychechak
Endi har yon gul demak
Chunki bahor elchisi
Shu mitti gul boychechak

2-o`quvchi:

Binafshadan o`zimga
Yuguribsan boychechak
Undan erta chiqishga
Ulguribsan boychechak

Ha bahorning birinchi quli boychechakdir. Yana bahor gullaridan Binafsha, lola, lolaqizg`aldoq, chuchmoma bahorning elchi o`simligi esa yalpizdir.

Boshlovchi: Qani bolalar yana qanday gullarni bilasiz?

Bolalar: Atirgul, rayxon, gulsapsar, nomoshomgul, gulbeor, gulhayri, bo`tako`z...

Boshlovchi: Juda to`g`ri. Endi davraga dilimizga zavq-shavq bog`ishlab xushboy hid taratuvchi bu nozik, gullarimizni taklif etsak. Ular o`zlari haqida she`r o`qib berishsa.

Bolalar: Marhabo, marhabo, marhabo... Bahoroy gapiradi.

1-o`quvchi: Boychechak

Gullar ichra birinchi
Ochilasan boychechak
Dala –qirlar bag`riga
Sochilasan boychechak

2-o`quvchi: Gunafsha yoki binafsha

Halima boqqa kirdi
Tong poyti shosha-pisha
Ilk bor gulin terdi,
Nomi jajji gunafsha

3-o`quvchi: Chuchmoma

Bahor chog`i ochilib

*Xushboy hidga to`libsan
Hech to`ymadim termulib
Sog`inganim bilibsan*

4-o`quvchi: Lola

*Bahor keldi elimizga
Ko`m ko`k bo`ldi bog`, dala
Sevinch to`lib dilimizga
Terib keldik gul lola*

5-o`quvchi: Lolaqizg`aldoq

*Bog`imizda ochildi ko`p
Bahor guli qizg`aldoq
Bizlar terib oldik bir to`p
Sevinib, yayrab shu choq.*

6-o`quvchi: Rayxon

*Har xil ko`chatni Oyxon!
Jo`yakka ekib qo`ydi
Jambil, sada, oshrayxon
Barq yozsin deb suv quydi.*

7-o`quvchi:

*Gul ko`chat ekib
Gulzor yaratdik
Parvarish etib
Barq taratdik*

8-o`quvchi:

*G`inchalab har shox,
Ochildi to`p-to`p
Qizil sariq oq
Har xil gullar ko`p*

9-o`quvchi:

*Mohir kichkintoyimiz
Gulchi barchamiz
Gul bilan-chiroyli
Maktab bog`chamiz*

10-o`quvchi:

*Men ham bir yosh gulchiman
Hursandman o`z burchimdan
Yashnaydi chamanzorlar
Halol mehnat kuchimdan*

11-o`quvchi:

*Bilaman gul tilini
O`qiganman ilmini
Ko`rsam darrov taniman
Rang-barang ming xilini*

12-o`quvchi:

*Chaman-chaman gul bog`im
Ko`pdir mening o`rtog`im*

*Gulni ko`p terganimdan
To`lib ketar quchog`im*

13-o`quvchi:

*G`unchalar kulib asta
Ochilar har nafasda
Keling do`stlar, o`rtoqlar,
Teraylik dasta-dasta.*

Bahoroy:

*Bolajonlar boshlaylik
Yalla navo-nazmini
Savol javob qismiyu
Topishmoqlar bazmini*

1-o`quvchi: Savol

Qaysi gulning nomida parrandani nomi bor?

2-o`quvchi:

Bu savolning javobi. “**Gultojixo`roz**”

3-o`quvchi: Savol

Qaysi gulning nomida hayvonning nomi bor?

4-o`quvchi:

Bu savolning javobi: “Itog`izgul”

5-o`quvchi: Savol

Qaysi gul kechqurun ochiladi?

6-o`quvchi:

Bu savolning javobi: “Namozshomgul” kechqurun ochiladi.

7-o`quvchi: Savol

Gullarning qanday turlarini bilasiz?

8-o`quvchi:

Madaniy gullar, dala, qir –adirlardagi gullar, butali gullar, xona gullari, suvda o`sadigan gullarni bilamiz.

9-o`quvchi: savol

Qanday gullarni nomini bilasiz?

10-o`quvchi:

Momaqaymoq, bo`z tikan, lattatikan, gulnayri, tugmachagul, lolaqizg`aldoq, chuchmoma, boychechak, binafsha bu gullar bog`, dala, qir-adirlarda ochiladi.

11-o`quvchi:

Qashqargul xrizantema, kartoshkagul, rayxon, xina, gultojixo`roz, duxobagul, tirnoqgul, shoyigul, lola, moychechak, chinnigul, atirgul, nomozshomgullar esa gulzorlarda ekib o`stiriladi.

12-o`quvchi:

Gulisumbul, begoniya, kaktus, aloe, sambitgul, astra, kala, o`zitug`ar, roza, geranlar esa xonada o`stiriladi.

13-o`quvchi:

Gul so`zi bilan boshlanadigan ismlarni bilasizmi?

Bolalar:

*Ona bilan bola-gul bilan lola
Qizning isi-gulning isi*

*Yaxshi gul soya
To`g`ri o`sgan gul bo`lar
Egri o`sgan kul bo`lar
Har gulni o`z isi bor
Har elning o`z tusi
Bog` chiroyi gul bilan
Inson qo`li gul
Gul o`ssa – yerning ko`rki
Qiz o`ssa – elning ko`rki*

*Gulning to`ni qirq yamoq ammo xushboy
Gulning ham tikani bor
Qiz bola, gul lola
O`zga yurtning gulidan
O`z yurtningni cho`li yaxshi
Har gulning hidi boshqa*

Topishmoqlar

Erta bahor keldi qizginam Toqqa yiydim qizil gilam	(lola, lolaqizg`aldoq)
Ko`m – ko`k tusi Hushboy isi	(Rayxon)
Eksang bitar Isi hammayoqni tutar	(rayxon)
Ariq boyida to`shak	(Maysa)
O`sar joyi ariq labi Bo`y taratar rayxon kabi	(yalpiz)
Yerdan asta unadi, Ilk bahorda kuladi	(boychechak)

Tezaytishlar

1. Go`zalning gullari gultuvakda gulladi
2. Gulnoza gulzordan gullar uzdi
3. Gulmira gullardan guldasta yasadi
4. Gulsara saralab gul sanadi

1-o`quvchi:

Gullar qayerda qo`llaniladi?

2-o`quvchi:

Gazlamalarda gul bosishda, chinni idishlarga, gul so`lishda, uylarga, gul solishda,

sochiq va dasturxonlarga gul solishda, guldastalar tayyorlashda ishlatiladi.

3-o`quvchi:

Gullar nima uchun kerak bo`ladi?

4-o`quvchi:

Sovg`a sifatida tabriklash uchun, do`stlik va sadoqat ramzi sifatida bayram kunlarini, tug`ilgan kunlarni nishonlashda ulug` kishilarni, onalarni qadrlashda kerak bo`ladi.

5-o`quvchi:

Gullarni qanday xosiyatini bilasiz?

6-o`quvchi:

Guldan atir tayyorlanadi, sovun va dori tayyorlanadi, guldan efir moyi olinadi, guldan asalarilar asal to`playdilar, gul ob-havoni oldindan bilishga yordam beradi.

Bahoroy: Gullar bizga qanday quvonch bag`ishlaydi.

1-o`quvchi:

Gul bor joyda kulgu, shodlik hukm suradi.

2-o`quvchi:

Gul bor joyda tinchlik davron suradi

3-o`quvchi:

Gul bor joyda baxt kulib boqadi

4-o`quvchi:

Gul bor joyda go`zallik yashayveradi

5-o`quvchi:

Gul bor joyda qayg`u yo`qolaveradi

Bolalar:

Gul bu – hayotimiz

Gul bu – Baxtimiz

Gul bu – Tinchligimiz

Gul bu – Do`stligimiz

Gul bu – mehrimiz

Boshlovchi: Endi navbat qo`shiq va raqslarga

O`qituvchi: Kelinglar, do`stlar, gulning, borlig`i uchun va porloq kelajakning, baxtiyor yoshlikning, farovon turmushning gullab-yashnashi, osmonimizning beg`ubor bo`lishi uchun birgalikda mehnat qilaylik.

“Bolaligim gulbahor” ashulasi

Bog`imda gullar chaman

Men gullarni quchaman

Zavqla ochib quchog`in

Yayrab qushday uchaman

Bolaligim gulbahor

Unda bahor husni bor

Quyosh uni erkalab

Kulub boqar har nahor

Hur go`zallik o`rtog`im,

Ichib unga quchog`ini

O`tar, doim hushchqchaq

Mening bolalaik chog`im

Bahor menga o`xshaydi

*U men bilan yashaydi
Qani endi yil bo`yi
U ketmasdan tursaydi*

“Uchchala qiz” ashulasi

*Uchchala qiz chiqdi ariq bo`yiga, bo`yiga,
Biri lola biri sumbul, biri gul
Eng kattasi chekkasiga gul taqdi, gul taqdi
Biri lola biri sumbul, biri gul
O`rtanchasi aslo qiyo boqmadi, boqmadi
Biri lola biri sumbul, biri gul
Eng kichigi endi to`ldi oltiga –oltiga
Biri lola, biri sumbul, biri gul.*

Chittigul. O`zbek xalq qo`shig`i

*Dupur-dupur ot keldi,
Chiqib qarang kim keldi,
Aravada un keldi,
Childirmada gul keldi,
Ha-yu chittigul
Ha-yu chittigul*

*Gul yaxshi-yu, gul yaxshi,
Gulning popugi yaxshi
O`rtada o`ynagan qizlarning
Haydar ko`kili yaxshi
Ha-yu chittigul
Ha-yu chittigul*

“Chamanda gul ochilibdi” qo`shig`i
Endi navbat musiqa, ashula va o`yinlarga

Mavzu: **Tillarda Vatan madhi.**

O`qituvchi kasb mahoratining shakllanishida qobiliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik ko`nikma negizida o`quvchi bilan amalgam oshirishi lozim bo`lgan ta`lim va tarbiyaviy munosabat turadi. Ana shu munosabatning uzluksiz va barqaror tus olishi muayyan pedagogic texnologiyani keltirib chiqaradi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida yaqin yillarda ta`limning mutlaqo yangi metodikasi ishlab chiqiladi. Bu esa yangicha pedagogic mahorat talab etadi. Pedagogic texnologiya-pedagogik mahoratni amalgam qo`llash to`g`risidagi fan. Shunga ko`ra pedagogic texnologiyada o`qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqroq qilib aytganda, yangi metodik mahorat-yangicha pedagogic texnologiya demakdir. Yangicha pedagogic texnologiyaning asosiy maqsadi va vazifasi yangi metodik mahoratni o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirishga qaratilgan bo`ladi. Xulosa qilib aytganda bilim va qobiliyatining yuzaga chiqishi o`qituvchining ijodkorligi, yangi pedagogic texnologiyasini kasb-mahorati asosida amalgam tatbiq etishdir.

Buning uchun o`qituvchi o`z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishi ta`limning yangi usullaridan foydalanishi, dars berish jarayonida ko`rsatmali qurollardan, texnika vositalaridan, tarqatma materiallardan, test savollaridan unumli foydalanishi kerak. Darslarni DTS lari talablari, pedagogic texnologiya usullari asosida tashkil qilib dars – sahna, dars –suhbat, dars – sayr ko`rinishida o`quvchilarga bilim berishga erishish kerak. Darslarni milliylik asosida tashkil qilish, noananaviy darslar, hamda andozasiz darslar tashkil qilish o`qituvchining qobiliyatiga va mahoratiga bog`liq deb o`ylayman. Men o`z ish tajribamdan kelib chiqqan holda birinchi sinf o`qish darslarning sinfdan tashqari o`qish –mashg`ulotda Bolalar haqida hikoya va ertaklar mavzularini o`tishda men dars-sahna, suhbat, sayr usullaridan foydalandim.

O`quvchilarga vatan haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlash va boyitish hamda o`quvchilarni fikrlash qobiliyatini o`stirish maqsadida “Vatan tuyg`usi” nomli ertalik o`tkazdim.

1. O`zbekiston Madhiyasi kuylanadi

O`qituvchi:

Aziz bolajonlar. Chaqaloq dunyoga kelib, ko`zin ochgan xonadan Vatandir. Endigina maktab partasida o`tirgan jajji qalbda ana shunday muqaddas tuyg`uni tarkib toptirish qanday yaxshi. Aziz o`quvchilarim 1 sentyabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu umidlari ushaldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil davlat O`zbekiston Respublikasi paydo bo`ldi. Aziz o`quvchilar ertalikka tayyormisiz.

O`qituvchi:

Xo`sh bolajonlar, Vatan nima? Vatan deganda nimani tushunasiz?

1-o`quvchi:

Do`stlar mening yurtimni
O`zbekiston deydilar,
Dong`i tutgan dunyoni
Bog`u bo`ston deydilar.

2-o`quvchi:

Mayli dunyo chaman bo`lsin
Men deymanki lek o`rtoq
Har kim uchun Vatan bo`lsin
Kindik qon to`kilgan tuproq

3-o`quvchi:

Vatan bu maktabimizdir.

4-o`quvchi:

Vatan bu beshikdir, Vatan
Onamiz aytgan alladan boshlanadi.

5-o`quvchi:

Vatan mustaqillikka erishgan kelajagi buyuk O`zbekistondir.

6-o`quvchi:

Vatan bu sinfimizdir, o`tirgan erimizdan boshlanadi

7-o`quvchi:

Vatan bu ostonadan, uyimizning ostonasidan boshlanadi.

8-o`quvchi:

Vatan-bu mahallamizdir
Vatan qiziq-qiziq o`yinlar
O`ynaydigan ko`chamizdir

9-o`quvchi:

Vatan –mustaqillikka erishgan, jahonga yuz tutayotgan kelajagi buyuk –
O`zbekistondir.

O`quvchi:

O`quvchilar fikrlarini uzohlab o`quvchilar bilan savol-javob o`tkazdim.

- Siz nechanchi sinfda o`qiysiz?

O`quvchilar: Biz 1-sinfda o`qiymiz

- Qaysi maktabda o`qiysiz?

O`quvchilar: 24-umumiy o`rta ta`lim maktabida o`qiymiz

- Qaysi mahallada turasiz?

O`quvchilar: Ayritom mahallasida turamiz

- Qaysi tumanda yashaysiz?

O`quvchilar: Shovot tumanida yashaymiz?

Viloyatingizni nomi nima?

O`quvchilar: Xorazm

- viloyat xokimini bilasizmi?

O`quvchilar: Allaberganov Allabergan

- Respublikamiz qanday nom bilan ataladi?

O`quvchilar: O`zbekiston.

O'zbekistonning poytaxti qayer?

O'quvchilar:

Toshkent.

-O'quvchilar O'zbekiston Prezidenti kim?

O'quvchilar:

Islom Abduganiyevich Karimov.

-Davlatimiz ramzlarini bilasizmi?

O'quvchilar:

O'zbekiston o'zining Bayrogiga, Madhiyasiga, Tamgasiga ega bo'ldi.

1- o'quvchi: O'zbekiston bayrog'i 1991-yil 18 noyabrda tasdiqlangan.

2-o'quvchi: Bayroqdagi moviy rang- musoffo osmon va tiniq suv ramzidir.

3-o'quvchi: Bayroqdagi oq rang - tinchlik poklik ramzidir.

4-o'quvchi: Bayroqdagi qizil rang-har bir tirik jon qon tomirida urib turgan qudratli kuchdir va hayot ramzidir.

5-o'quvchi:

Davlatimiz tamgasi 1992 - yil 2 iyulda qabul qilingan.

Shu payt eshikdan humo qushi kirib keladi va u deydi.

Xumo qush: Assalomu alaykum, aziz bolajonlar.

O'quvchilar: Xush kelibsiz, Xumo qushi, davramizga marhabo!

1-o'quvchi: Boshqa qo'nding parvoz aylab

Yurti halqim e'zoz aylab,

Samo qushim, ziyo qushim.

A'lo qushim, humo qushim.

Xumo qushi: Men o'zim bilan birgalikda davlatimiz bayrogini tamgasini ham olib keldim.

2-o'quvchi: Xalqim orzu niyati

Dilga quvonch soladi

Bayrogimiz dunyo uzra

Yurtga davrug' soladi.

3-o'quvchi: Bayroqdagi to'rt hil rang,

Hamohangdir birlikda

Bir-birini to'ldirar,

Maqsad sari tenglikda.

4-o'quvchi: Tamg'amizda bor orzu,

Aks etgandir biling siz

Xumo qushi etkazar

Maqsad sari biling siz

5- o'quvchi: Paxta bug'doy chambbari,

Tinchlik, to'qlik ramzi

Quyosh, yulduz, suy, tog'lar,

Yashnagan yurt timsoli.

O'qituvchi: Bolalar endi o'tmishimizga sayohat qilamiz.

Aziz o'qituvchilar, siz tuproq zamin uzra yashab o'tkan ota- bobolarimizdan kimlarni bilasiz?

Najmiddin Kubro, Feruz, Ogohiy, Avaz O'tar, Pahlovon Mahmud, Al Xorazmiy

bobomizni bilamiz.

- Najmiddin Kubro, Al- Xorazmiy suratlarni ko`tarib o`quvchilar kirib keladilar.

1- o`quvchilar: Najmiddin Kubro:- Har biringiz o`ziga to`g`ri yo`l ko`rsatgan ustozga tazim bajo aylang.

2- o`quvchi: Feruz:

47 yil Xivamizning osmonida charaqlagan yulduziman

Ogohidek ulug` zotga shogird bo`lgan Feruzman sahna ko`rinishi.

3-o`qitubchi:Boshlovchi:

5-sinfdan

Yosh Najmiddin Kubro ilim olish ko`hna Urganchga boradi. U erda ilim olish bilan birga bog`u eram yaratadi va u erda onasini olib ketmoqchi bo`ladi. Shuning uchun onasining yoniga boradi.

Najmiddin Kubro:- assalomu alaykum Onajon! Sog`misiz, Omonmisiz?

Bibihajar ona:

- va lakum assalom bolajonom, seni judayam sog`indim.

Najmiddin Kubro:- Onajon men sizni ko`hna Urganchga olib ketaman. U erda bog`u eram yaratdim. Siz endi o`sha erda yashaymiz.

Bibihajar ona:

-O`zga yurtni istamasmen bolajonim. Bu tuproqda ota- bobolarimiz, avladlarimiz bor.

Mening tug`ilib o`sgan joyim jannatdir. O`z kulbam bog`dir.

Najmiddin Kubro:

-Unday bo`lsa onajon menga ruhsat bering, men o`qishimni davom ettirsam. Duo qiling.

Bibihajar ona:

-Omin o`g`lim qayda bo`lsang sog` bo`l, faqat o`z yurtningni unutma.

Boshlovchi: shunday qilib Bibihajar onamiz o`z kulbasini bog`-sanab shu erda qolgan ekan.

O`qituvchi: Aziz o`quvchilar endi Vatan haqida bilgan She`rlaringizni aytib bersangizlar.

1-o`quvchi:

O`zbekiston –vatanim,

Dunyo ichra makonom

Quchoqingda yayrayman,

Qolmasin hech armonim

2- o`quvchi:

Istiqlolining muborak,

Baht iqboling muborak,

Jahon uzra yoyilgan

Shan-shavkating muborak

3- o`quvchi

Vatan mehru dilimda,

Ilhom beradi menga.

Saybi hurram zamonda,

Madhing kuylay har onda.

4 - o`quvchi.

Mustaqil ne demak,
Ne demakdir istiqlol?
Buni bilmog`ing kerak,
Ma`nosini dilga sol. ...

Shundan keyin vatan haqida maqollar aytdilar.

1 – o`quvchi Vatanning tinch, sen tinch

2 – o`quvchi Bulbul chamanni seval

Odam – vatanni

3 – o`quvchi Ona – yurtning omon bo`lsa

Rang-u ro`ying somon bo`lmas

4 – o`quvchi Ona yurtning – oltin beshiging

5 – o`quvchi Vatanni sevmoq imondandir...

Tez aytish aydilar

O`qituvchi: Qadrli bolajonlar bu yil sog`lom avlod yili deb qabul qilindi. Bizni shunday yayrab yashashimiz uchun barcha imkoniyatlarni yaratib qo`ygan yurtboshimiz haqidagi qo`shiqimizni kuylaylik.

Islom bobo

M.Rahmon sh`eri

Sh.Yormatov musiqasi

Ushbu tinch yer, osmon uchun,
Erkin quvnoq zamon uchun,
Shunday shirin davron uchun,
Rahmat sizga Islom bobo.

Bosh bo`ldingiz istiqlolga.
Erishdik chin istiqlolga,
To`lar bo`ldi hayot bolga,
Rahmat sizga Islom bobo

Ashullasi kuylanadi. Shundan keyin qo`shiq va raqs ijro etiladi. Xorazm lazgisi bilan yakunlanadi.

Men bu ertalik orqali o`quvchilarga o`z tariximizni ota-bobolarimizni, madaniyatimizni yoshlikda singdira olsam ular qalbiga mehr – muhabbat, Vatanni sevishga, ota – onani, avlod – ajdodlar izidan borib ular ishini davom qildiradigan yoshlarni tarbiyalab berish men uchun katta baxt. Biz boshlang`ich ta`lim o`qituvchilari, avvalo, Vatan va Millat tuyg`usini bolalar yuragida ana shunday “eka” bilishimiz kerak. Toki tan bilan Vatan bir bo`lsin. Bu esa yurtboshimiz orzu qilayotgan kelajagi buyuk davlatning mehnatkash insonlarini yaratadi.

“Gullar va Qushlar” bayrami

Gul... Uning go`zalligidan, insonga quvonch ato etuvchi xush iforidan bahra olmaydiganlar topilmasa kerak. Ayniqsa, bizning xalqimiz gul shaydosi, shu bois Vatanimizda qishin, yozin turli xil gullar yetishtiriladi. Namanganda esa har yili “Gullar va Qushlar”ni o`tkazish an`anaga aylangan. Bizning 21-umumiy o`rta ta`lim maktabida ham har yili “Gullar va Qushlar” bayrami o`tkaziladi. Shu tadbirni senariysi bilan tanishamiz.

Maktab sahnasi o`ziga xos bayramona usulda chiroyli gullar va qushlar bilan bezatilgan ohista musiqa yangraydi. Sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi.

1-boshlovchi: (Gullarga qarab) – Do`stim, qarang, bu qadar go`zal manzara. Bu qadar go`zalgullar. Bular tabiatning chin mo`jizasi emasmi?

2-boshlovchi: - Ha, to`g`ri aytdingiz, gullar haqiqiy go`zallik timsolidir. Bugungi bayramimiz ham anashu tabiatning nodir mo`jizasi-gullar nomi bilan ataladi. Qarang, bayramga qancha mehmonlar yig`ilishgan. Keling, ular bilan salomlashaylik.

1-boshlovchi: - Assalom deganda ochilgay gullar
Assalom deganda sayrar bulbullar
Assalom deganda quyosh kuladi,
Dillarga ezgulik nuri inadi.

2-boshlovchi: - Assalom, davramizning siz aziz mehmonlari,
Assalom, ilmu fanning sohibi davronlari!
Mo`tabar otaxonu onaxonlar assalom!
Yuzlarga kulgu balqqan bolajonlar, assalom!

(Boshlovchilar ta`zim ila sahnadan chiqishadi ohista musiqa yangraydi. Boshlariga gulchambar taqqan qizlar raqsga tushadilar).

1-o`quvchi: - Tinchlik bo`lsin dunyoda,
Olam gullarga to`lsin!
Biz kabi bolajonlar,
Bog`larda o`ynab kulsin.

2-o`quvchi: - Bayramlarni sevamiz,
Bayramlar bizda bisyor.
Ezgu qalblar sevguvchi,
Yurtda hamisha bahor.

1-boshlovchi: - Bolalar, qaranglar, davramizga kim mehmon bo`lib keldi. (Sochlariga taqqan gul, Bahoroy tashrif buyuradi va egilib salom beradi).

O`quvchilar: (jo`r ovozda): - Axir bu Bahoroy-ku!

2-boshlovchi: - Xush kelibsana, Bahoroy!

Bahoroy: (ta`zim qilgan holda).

- Mana men, go`zal bahor,
Yetib keldim sizlarga.
Jon kirdizdim daraxtlaru
G`unchalar, ildizlarga.
Oppoq o`rik gullarim bilan,
Iliq quyosh nurlarim bilan.

Kamalakday etti tovlanib
Yashillanib goh olovlanib,
Mehmon bo`lib keldim bolar.

(Bolalar “Hey lola” qo`shig`ini ijro etishadi.)

1-boshlovchi: - Bolajonlar, gullar haqida she`rlar ham bilasizmi?

Bolalar: - Ha-a!

1-oquvchi: Boychechak. Ga`yratiy she`ri.

- Bahordan berding darak,

Oson bo`lmadi kutmak.

Senga talpinar yurak,

Sevgan gulim boychechak.

Hamma: - Boychechak, boychechak

Sevgan gulim boychechak.

2-o`quvchi: - Seni ko`rdim bog`larda

Baxmal adir, tog`larda

Yam-yashil o`tloqlarda.

Sen husnga boy chechak.

Hamma: - Boychechak, boychechak

Sevgan gulim boychechak.

3-o`quvchi: - Lola, lola lolajon

Osar joying dalada

Lola, lola lolajon

Chidadingmi jalaga.

4-o`quvchi: Chuchmomaman, chuchmoma,

Ochilaman siz uchun

Xushbo`y hidim taratib,

Ko`zingizmi yayratib

(Bog`bon ota kirib keladi va gullarga razm soladi).

Bog`bon ota: - Bolalar siz gullarni sevasizmi?

Bolalar: - Ha.

Bog`bon ota: - Ularga bir razm soling-a. qanday go`zal, qanday chiroyli. Endi gullar haqidagi fikringizni bilmoqchiman.

1-o`quvchi: - Bobojon, gul bor joyda go`zallik, tinchlik tabassum va shodlik hukm suradi.

2-o`quvchi: Go`zal tabiatni gullarsiz tasavvur etish qiyin, shuning uchun ularni doimo asrab avaylashimiz va ko`paytirishimiz lozim.

3-o`quvchi: - Dalalarda, gulzorlarda gullarni uzishdan ko`ra asrab avaylasak, bu chin go`zallikni asrash emasmi? Biz gullarni uzsak ular so`lib qoladi, undan ko`ra ko`zimizni quvontirib, ochilib tursa, qanday yaxshi. Ularni payxon qilishdan o`zimizni tiyaylik.

4-o`quvchi: - Haqiqatan ham gullarga nainki gullarga, balki tabiatning barcha yashil boyliklariga, mehrlil bo`lmoq kerak. Insonlarning tabiatga shafqatsiz munosabat uchun ham hozirda yuzlab o`simlik turlari “Qozol kitob”ga kiritilgan.

Bog`bon ota: - Barakalla, bolajonlarim! Sizlarning teran fikrlaringiz meni xursand qildi. Siz kabi gul shaydolari kelgusida yurtimizni go`zal chamanzorga aylantiradi. Men bunga ishonaman.

(Bolalar “Gulchiman” qo`shig`ini kuylashadi. Bog`bon ota xayrlashib chiqib ketadi).

1-boshlovchi: - Bolalar quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling-chi!

- Qaysi gulning nomida parrandaga o`xshatish mavjud? (Gultojixo`roz).

- Qaysi gul kechqurun ochiladi? (Namozshomgul).

2-boshlovchi: - Dugonajon gullar to`g`risida ko`pgina ma`lumotlarga ega ekanlar.

1-boshlovchi: - Ha, to`g`ri aytdingiz. Bilasizmi, dugonajon bahor kelishi bilan yurtimizga juda uzoqlardan qushlar uchib keladi. Bugun, axir Qushlar bayramini nishonlayapmiz.

2-boshlovchi: Ha, qushlar bizning do`stimiz. Keling bolalar qushlar haqida nimalarni bilishar ekanlar, so`rab ko`ramiz.

1-boshlovchi: - Bolalar qushlar haqida nimalarni bilasiz.

1-o`quvchi: - Bahor kelishi bilan issiq mamlakatlarga uchib ketgan qushlar yurtimizga qaytib keladilar. Bularga qaldirg`och, bulbul, zarg`aldoq hisoblanadi.

2-o`quvchi: - Ko`p qushlar esa yil davomida bir joyda yashaydilar. Bunday qushlarga chittak, musicha, ko`k kaptar, kaklik, chumchuq kiradi.

2-boshlovchi: - Qushlar haqida she`rlar ham bilasizlarmi?

3-boshlovchi: - Chug`urchuqlar churqillaydi

Bulbullar sayrashadi.

Qaldirg`ochlar kuylashadi.

Barcha qushlar jam bo`lsa.

4-o`quvchi: - Chug`ur-chug`ur qaldirg`och,

Eshigingni tezroq och.

Mana boshqoq, mana don

Manziling shu xonodon.

5-o`quvchi: Turnalar ko`p sayraydi.

Chug`urchuqlar kuylaydi.

Shox – shabbalar qo`ynida

Oq turnalar o`ynaydi.

6-o`quvchi: Nima ekan bu qush nomi

Suvlar to`qay o`rmoni

Qo`shiq aytar ku-ku

Shu sababli nomi kakku.

(Keyin o`quvchilar qushlar haqida ma`lumot beradilar).

1-o`quvchi: Qarg`a qushlar sinfining chumchuqsimonlar turkumiga kiradi. Yevropa, Osiyo, Afrika va Shimoliy Amerikada tarqalgan qarg`alar xar-xil oziqlar bilan oziqlanadi. Bular o`rmonlarda bog`, park va daryo bo`ylarida yashaydi. Qishda shahar va qishlarga kam keladilar. Uyasini daraxtlarga qamish va buta o`simliklariga quradi. 4-5 dona tuxum qo`yadi. Ba`zi bir yerlarda foydali qushlarning tuxum va bolalarini yeb, zarar ham yetkazadi.

2-o`quvchi: Qirg`iy, burgut yirtqich qushlar turkumining qarchig`aylar oilasiga kiradi. Qirg`iy Yevropa, Osiyo Afrikada tarqalgan.

Burgutlarning 12 tagacha turi bor. Ular tog`larda o`rmon cho`l va sahrolarda yashaydi. Burgutlar o`ljasini havodan, yerdan va suvdan turib tuta oladi. Ular baliqlar, qushlar bilan oziqlanadi.

3-o`quvchi: Ukki yapaloqqushlar orasida eng yirigi. Boshining ustida quloqqa o`xshash ikki to`p pati dikkayib turadi. Ukki ko`proq turli kemiruvchilar bilan

oziqlanadi, ba`zan o`rgimchaklar va ayrim qushlarni ham tutib yeydi.

4-o`quvchi: O`rdaklar bundan 3000 yil oldin yovvoyi o`rdaklardan kelib chiqqan. O`rdak tuxumining ta`mi uncha yaxshi bo`lmaganligi sababli odatda go`shti uchun boqiladi. O`rta Osiyo uv suv havzalarida suqsar o`rdaklar uchraydi.

5-o`quvchi: Tovuqlar xonaki parrandalar orasida eng ko`p boqiladi. Hozirgi tovuq zotlari tropik o`rmonlarda yashaydigan yavvoyi bankiv tovuqlardan kelib chiqqan.

Bundan taxminan 4500 yil ilgari qadimgi Hindistonda tankiv tovuqlari xonakilashtira boshlangan. Hozirgi tovuqlar tuxum, go`sht, go`sht-tuxum yo`nalishidagi zotlarga ajratilgan. Zotlar tashqi ko`rinishi bilan bir-biridan farq qiladi.

1-boshlovchi: Mana azizlar “Gullar va Qushlar bayrami”ga bag`ishlangan kechamiz ham oxirlab qoldi. Aziz o`quvchilar har birimiz tabiatga mehr-muruvvatli bo`lishimiz va tabiatning tabiiy go`zalligini saqlashimiz kerak.

2-boshlovchi: Tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish har bir insonning muqaddas burchidir. Ona tabiatni asrang aziz o`quvchilar!

(O`quvchilar “Tabiatni asrang” qo`shig`i bilan kechani yakunlaydilar).

Ko`rinish 1400-yil

Boburning otasi Umarshayx saroy a`yonlari bilan ayvonda o`tirgan edi. Shu payt bir kabutar kelib “G`ulu-g`uli” qila boshlaydi shunda shoh kabutar nima deyayotganini so`raydi.

Shoh: Kabutar ne demoqda?

1-vazir: Shohim kabutar aytmoqda kim qilichlar qonsirab qoldi urush boshlash vaqti keldi demoqda

2-vazir: Yo`q! Yo`q shohim kabutar bunday deyayotgani yo`q u bizni qishloqqa “Qovun sayliga” “Hosil bayramga” aytib kelgan bo`lsa kerak.

Shoh: Muhtaram vazir siz haqsiz u o`tgan yil ham bizni “Qovun sayliga” aytib maktub keltirgan edi.

Yuringlar unday bo`lsa hammamiz bayramga boraylik (Ular chiqib ketadi, keyin 2009-yil deb yozilgan plakat chiqariladi)

1- Boshlovchi: Assalomu alaykum mehmanlar. Ustozlar, Ota-onalar, o`quvchi yoshlar. O`zingiz huvoh bo`lganingizdek bugungi tadbir “Mehrjon” ya`ni “Hosil bayramga” bag`ishlanadi.

2-boshlovchi: Assalomu alaykum mehmanlar. Bugun siz bilan uchrashayotganimizdan xursandmiz. Davramizga xush kelibsiz!

Mehrjon bilan Navro`z o`zbeklarning eng go`zal va tarovatli bayram saylidir.

3-boshlovchi: Abu Rayxon Beruniyning yozishlaricha “Quyosh va oy falakning ikki ko`zi, Mehrjon va Navro`z esa zaminning ikki ko`zidir”.

Navro`z-bahor kirishi yangi kun, yangi hayotning boshlanishi. Mehrijon esa-to`kin-sochinlik, shukuronalik, serobchilikning ko`rinishi.

1-boshlovchi: Bugungi kechani ochib berish uchun so`z maktab deirektori yoki direktor o`rinbosariga beriladi.

Kuz haqida she`rlar:

Kuzimizning go‘zalligin
Og‘aynilar ko‘rganmisiz?
Tokdan xusayni, yerdan qirqma
Shohdan behi uzganmisiz?

Uzum uzib, sharbat suzib
Shinniga o‘t yoq qanmisiz?
Gala-gala, shoda-shoda
Duv-duv yong‘oq qoqqamisiz

Bog‘da yashab qolmay armoni
Uchib o‘tar turna karvoni
Yeru-ko‘kni tutib sur‘oni
Xush qol kuz!

Bog‘larda g‘arq pishgan olmalar
Yuzlariga shaker o‘rmalar
Terib olinadi tonnalar
Har qol, kuz!

Raqs “Xorazmga gallinglar”

2-boshlovchi: Qaranglar davramizga mehmonlar kirib kelmoqda

Hamma: Assalomu alaykum Dehqonbobo!

Assalomu alaykum Kuzoy!

Kuzoy: Oltin kuzman, oltin kuz

Doim sochin, to‘kin kuz

Hosil mo‘l ko‘l bo‘ladi

Qo‘ni-qo‘njim to‘ladi.

Kuzoy gapiradi: Mana dehqonbobo u yerni juda sevadi yer uning eng yaqin do‘sti shunga bo‘lsa kerak har yil mo‘l hosil yig‘adi. Aziz bolajonlar siz ham u kishi kabi yerni seving, mehnatsevar bo‘ling!

3-boshlovchi: Prezidentimiz I.A.K bobdehqonlarning zahmatini e‘zozlab 2008 yilni “Dehqonlar yili”, 2009 yilni “Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili” deb atadi.

1-boshlovchi: Bu albatta qishloq dehqonlarini quvontirdi. Bundan zavq olgan dehqonning hosili har yilgidan mo‘l

Dehqonbobo gapiradi: Aziz bolajonlarim duru-gavharlarim siz a‘lo o‘qing, shu bilan birga mehnatga mehr qo‘ying chunki mehnat insonni ulug‘laydi. Bugun bayramda dam olaylik.

She‘r “Dehqon desam”

Qo‘shiq “Qishloqlarimdan”

(davraga “shamol” yugirib kirib keladi u bolalarni shamoli bilan tebratadi).

Shamol: Shamol, shamol shomolman

Sochlari to‘ziq shamolman

Bulutlarni to‘zitib

Har tomonga o‘kirib

Yelaman siz tomonga
Kuchim yetar har nega!

(davraga "Yomg'izr" kirib keladi)

Yomg'ir: Yomg'irdirman men yomg'ir
Mo'l –ko'lichilik ramziman
Sel bo'lib quyganda
Daryolarni to'ldur gum
Jahlim chiqsa gar meni
Gumburlatib samoni
Yeru-ko'kni larzaga
Keltirguvchi men yomg'ir!

2-Boshlovchi: Shamol shamol sendan iltimos yana ozgina sabr qil. Sen
buncha bajahl bo'lma. Yosh navdalarga rahming kelsin ular
nimjon. Katta bo buncha bajahl bo'lma. Yosh navdalarga ular
shahar qishloqlarni yanada gohida buncha bajahl bo'lma. Yosh
navdalar go'zal va yashil qiladi.

3-Boshlovchi: Yomg'irjon sen mo'l ko'lichilik ramzisan hali dalada hosil mo'l,
ularni yig'ib olguncha sabr qil. Keling siz ham biz bilan "Hosil
bayrami" da mehmon bo'ling berga o'ynab kuling.

Qo'shiq "Tomchi, tomchi yomg'irroy" Raqs "Yomg'ir"

1-Boshlovchi: Bolalar qaranglar osmonda turnalar uchib o'tmoqda
(Davraga qizlar turnalar bo'lib qanot qoqib kirib keladi).

Turnalar hoy, turnalar
Pastlab uchingiz
Bizning ko'l va daryolar
Bag'rin kuchingiz

Turnalar: Biz turnalar uchamiz
Samolarni quchamiz
Nasib etsa bahorda
Yana sizga qaytamiz!
Yana sizga qaytamiz!
Yana sizga qaytamiz!

Raqs "Turnalar"

2-Boshlovchi: Kuz keldi bizlarga
Oltin kosada
Sharbat ola keldi
Bol ola keldi
Savat-savat qilib
Shirin mevalar
Omborlar liq to'la
Pon ola keldi

3-Boshlovchi: Boqqa kirsam shaftoli, uzum
Sharbatlarga to'lib pishibdi
Oltin nashvati, yoqut olmalar
Uzulib tagiga tushibdi

(davraga har hil meva maskasi osilgan bolalar kirib keladi)

“So ‘nggi axborot” she’ri

3-o ‘quvch ushbu she’rni aytadi

- Olma:** Olmadir mening ismim
Biram yoqimli hidim
- Anor:** Loladek qip qizil rangdaman
Mevalar ichra a’loman
- Nok:** Xush ko‘rishar azaldan
Shirindurman asaldan
- Uzum:** Marvarid shodasiday
Ishkomlarda osig‘liq
- Tarvuz:** Men kabi shirin ne‘mat
Topilmaydi dunyoda
- Qovun:** Tanaga quvvat berar
Tilimim tilni yorar
- Sholg‘om:** Men haqida ertaklar
Yahshilikka yetaklar
Sholg‘om bobo deb meni
Tabobatda siylashar
- Pomidor:** Men bilan taomlar
Chiroyli rangga kirar
Palov to‘ra yonidan
Menga albat joy yetar
- Baqlajon:** Kaminani nomilari
Mulla baqla, baqlajon
Oshpazlar salat qilsa
Yeb to‘ymaysiz hech qachon
- Qavoq:** Meni derlar qovoq, kadi
Ming dardga darmon kadi

Raqs “Olma pishganda galing”

Dehqonbobo: Aziz bolajonlarim, kuzning malikasi Paxtaoy. Paxtadan to‘la, chiqitidan yo‘q, yem-xashak olinadi siz paxta haqida she’rlar yod olgandirsiz?

“Paxta” haqida she’rlar

- 1-O‘quvchi:** Chaman chaman paxtazor
Yurtimizga iftixor
- 2-O‘quvchi:** Paxtaoy hoy, paxtaoy
Dalalarning oq qizi

3-O'quvchi: Dala to'la oppoq qush
Oppoq qushu, momiq qush
Kuzoy: "Hosil bayrami"ning eng
Aziz ne'mati bugdoy
U to non bo'lguncha qancha

Mehnat qilinadi . Siz bolalar nonni uvol qilmang, isrof qilish gunohdir.

"Non haqida she'rlar"

Qo'shiq "Non yopadi"

Ko'rinish "Dono dehqon va shoh" ertagi

1-Boshlovchi: Har bir faslning o'z ko'rki, tarovati bor. Unga atab xalqimiz himatli so'zlar, maqollar yaratgan. Ularda tabiat go'zalligi, odamlar mehnati, hayot tarannum etiladi. Quydagi maqollar ham shular jumlasiga kiradi.

Maqollar

- 1.Erta ekan erda o'rar, kech qolgan o'tin terar
2. O'z vaqtida ekaning, hirmon-hirmon yig'ganing
3. Yer haydasang kuz hayda kuz haydasang yuz hayda
- 4.Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog'
5. Mehnat qilib topganing, qandi asal totganing
- 6.Biri kessang, onni er

2-Boshlovchi: Xalq ogzaki ijodi juda boy qoshiq ertak, doston, maqol. Tez aytish va maqol tez aytish va hakoza xalqning orzu umidi samarasi. Xalq tomondan mavsum, mehnat qoshiqlari yaratilgan, erin ekishda. Hosil yiqib olinganda har xil qoshiqlar yaratilgan.

Hozir e'tiboringizga ularning ayrimlarini havola qilamiz.

"Kim oladi-yo" qoshigini, "Xop hayda-yo" qoshigini

O'quvchilar ijro etadilar

3-Boshlovchi: Bayramlar kulgisiz, dorbozlersiz, masxara bozlersiz o'tmasa kerak.

Bayramlarda bir-biriga xazil qilishlar askiyalar bilan bazmlar maroqli o'tishgan

Hozir o'quvchilar Kuz ne'matlariga atab askiya qilishadi.

(davraga 6 o'quvchi chiqib bir-birlari bilan askiya aytishadi)

-Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?

-Aytganingizman!

1-Boshlovchi: Bayramlar polvonlar kurashi, xo'roz urishtirish, itlar jangi, uloq choptirish va turli musobaqalar bilan qiziq bo'lgan.

2-Boshlovchi: Hozir davraga chaqqon epchil, kuchi o'quvchilarni taklif qilaylik

3-Boshlovchi: Keling, keling ha balli yigitlar.

Mana 4 ta olma uni kim birinchi yeb bo'ladi. Yutqazgan she'r aytadi.

(bolalar chiqadi, olma yeyish musobaqasi o'tkaziladi .Arqon tortish musobaqasi

o'tkaziladi)

Dehqonbobo: Bolalar endi men boray bugun dam oldim maza qilib dam oldim. Endi dalamga boray, hali dalada hosil mo'l, ish ko'p ularni bitkazay. Siz a'lo o'qib, ota-onangizga ko'makchi bo'ling.

Kuzoy: Men ham boray. Hali dalaga quyoshli kunim zarur, issiq kunlarim oz qoldi, shunga beg'am bo'lmang.

Yomg'ir: Mayli dehqonbobo, bolalar men ham sabr qilay dalada hali hosil mo'l lekin baribir shoshiling, shamol meni qisyatdi.

Shamol: Men ham shoshqaloqman tezroq qish kelib qoladi. Men maza qilib dala-bog'ni keza man, sizni kutib turolmayman.

Bolalar: Xayr Dehqonbobo!

Xayr Kuzoy!

Dehqonbobo, Kuzoy, Yomg'ir, Shamol sho'x musiqa sadolariga raqsga tushib xayrlashadilar.

1-Boshlovchi: Xurmatli, aziz mehmonlar bugungi bayram tadbirimiz yakuniga yetdi

2-Boshlovchi: Siz azizlarga sog'lik omad, tinchlik, farovonlik tilaymiz

3-Boshlovchi: Kechamizni yopish uchun so'zni maktab direktori yoki o'rinbosariga beriladi, ota-onalar gapiradi.

Hamma: Ko'rishguncha sog' va omon bo'ling!

MEHRJON BAYRAMI

- 1-Boshlovchi:** Assalom bobolar, uy farishtasi
Assalom, momaolar dil sarishtasi
- 2-Boshlovchi:** Assalom otalar, baxtim posponi
Assalom onalar, mehr umoni
- 1-Boshlovchi:** Assalom ustozlar qalbi quyoshlar
Boshimda parvona mehri otashlar
- 2-Boshlovchi:** Assalom mehmonlar, do‘stlar tengdoshlar
Assalom kelajak egasi yoshlar
- 1-2 Boshlovchi:** Baringizga aytayin shundayin tilak
Mehrjon bayrami bo‘lsin muborak
- 1-Boshlovchi:** Aziz ustozlar, mehmonlar bugun biz “mehrjon” ya’ni hosil
bayramiga sizlarni taklif qildik
- 2-Boshlovchi:** Qadim-qadimdan ota bobolarimiz kuzda hosillarni yig‘ib olgach
“Mehrjon” bayramni o‘tkazishgan.
- 1-Boshlovchi:** Bunda hamma jamlanib meva sabzovodlar-barcha hosil haqida
qo‘shiq, she‘rlar aytib, o‘yinlar o‘ynashgan.
- 2-Boshlang‘ich:** Biz ham sizga bayram sovg‘asi tayorladik.
- 1-O‘quvchi:** O‘zbekiston-ozod diyor,
Bog‘ri doim gul chamanzor
Dalalari hosilga boy
Bog‘larida yulduzi oy.
Bobodehqon chiqib qo‘l yozib yoniga chaqiradi.
- 2-O‘quvchi:** Paxta bizning sha‘nimiz
Boyligi chin konimiz
Uyulgan xirmonimiz
Nelar keltirar bizga
Ko‘rsataylik biz sizga
(Paxta: sovun, yog‘, gazlama, kunjara)
(Bug‘doy: un, non, makaron, olib chiqadi)
- Qo‘shiq:** Bug‘doy rizqu ro‘zimiz
Elda muqqadas va ulug‘
Ruzqu ro‘zimiz to‘liq

4-O'quvchi: (sholi, guruch olib chiqadi)
To'ylarda suzma, palov
Pishmasa bo'lmas sira
Dalalarning ko'rkidir
Avangardu devzira

5-O'quvchi: (Oq jo'xari, qora jo'xori, makka jo'xori olib chiqadi)
Ham insonga yemishmiz
Ham chorvoga yem-xashak
Turli navlar yaratib
Ko'paytirishdi andak
Bog'bon qo'lida tok qaychi bilan davraga chiqadi
Olma, o'rik, uzumlar
Gilos noshvati, anor
Shaftoli-yu, anjirlar
Keeling sizga muntazir.

Qo'shiq: Kuzimizning go'zalligin
Og'aynilar ko'rganmiz
Tokdan husayni, yerdan Qirqma
Shohdan behi uzganmisiz.

Ularni ham qo'yaveringlar
Dalamizga chiqqanmisiz
Paxtazordan uyum-uyum
Oq oltinni yiqanmisiz

Poliz kiring qovun tarvuz
Qovun handalaklar bisyor
Sabzi, piyoz, kartoshkami
Qarang bari bizlarda bor

1-o'quvchi: (Polizda nimalar o'sadi)
1-Qovun ko'targan bola Gurovak, amiri oq novod
Surxonimi tanlab ol
Biri asal, biri qand
Biri shakar, biri bol

2-Qovun: Manti go'mma, xonimni
Pishray desangiz gar
Tatib asl ta'mimni
Diysiz qovoqmas shakar

3-Tarvuz: Yaltiroqman, yengilman
Ikklanmay ur pichoq
Chunki qizil mag'zimni
Yashirib turar Pichoq

4-Karam: Salat, chimchi, do‘lmaga
Ishlatishar yoz-u qish
Semizni ozdiraman
Qilmang sira tashvish

5-Baqlajon: Ikrani sevmaydi kim
Mensiz o‘xshamas salot
Xilma-xildir tur, navim
Bilib oling marhamat

6-Sabzi: Vitaminga zo‘p boyman
Osh o‘xshamas menimsiz
Qizil, sariq xilma-xil
Hali, o‘zingiz bilasiz

7-Piyoz: Hamma narsa men bilan
Taomga ta‘m beraman
Tumov, girip bo‘lsangiz
Dardingizni yengaman

8-Turp: Shalg‘om, lavlagi
Bizni derlar dardlarga
Davo ne‘matlar sara
Shifo, malham bo‘lamiz
Bizni sevgan insonlarga

Har bir tushuntirishdan so‘ng quyidagi musobaqalar o‘tkazilib g‘oliblar aniqlanadi.
“Mehrjon” bayrami bolalarni kuz uning hosili dehqon-u bog‘bonlar mehnati, ularni qadrlash meva va sabzovodlarning inson hayotidagi ahamiyati haqida o‘quvchilarga ma‘lumot beradi.

- 1) Sabzi to‘g‘rash
- 2) Olma artish
- 3) Qovun so‘yish
- 4) Tarvuz kesish.

**Yangi yil ertaligi. 4-“A”-sinf o‘quvchilari.
2010 yil 27 dekabr kuni o‘tkazilgan ertalik.**

Kechani maktabimizning tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari Abdullayev S ochib berdi. Sahnalashtirilgan ko‘rinishni boshladik. Rollarda sinfning aktiv o‘quvchilari qatnashdi.

1. **Boshlovchi:** _____
2. **Jodugar:** _____
3. **Qorbobo:** _____
4. **Qorqiz:** _____
5. **2006 yil:** _____
6. **2007 yil:** _____

va boshqa o`quvchilar she`r, qo`shiqlari bilan qatnashdilar.
Sahnaga jarangdor ovozi bilan boshlovchilar kirib kelishdi.

Boshlovchi: Assalomu alaykum mahribon ustozlar, azizi bolajonlar...

Maftuna: she`r aytadi. “Salom odobning boshi”. Sahnaga alanglagan cha jodugar kirib keladi. U yoq, bu yoqqa supurgisiga minib yugurib, bolalar yoniga borib, ularni kuldiradi.

Jodugar: Voy, voy, Nimalar deb javrashyapti, yangi yil bayramiga, yangi yil bazmiga dedimi...

Boshlovchi: - Hoy, jodugar! Seni bu yerga kim chaqirdi? Rostini ayt, Qorbobo bilan Qorqizni ko`rdingmi? Ular qayerda?

Jodugar: - Bolmasamchi, Ko`rganda qandoq. Lekin ular boshqa yoqqa kelishdi. Chunki men ularga noto`g`ri yo`l ko`rsatdim, kutib ovora bo`lmang.

Boshlovchi: - Bekorlarni aytibsan. Ular kelishlari shart. Ularsiz bayram bayrammi? Hozir birgalashib chaqiramiz.

Hamma: - Qor-bo-bo, Qorbobo, Davramizga marhabo. (Uzoqdan ovozi eshitiladi).

Jodugar: - Obbo, endi nima qilaman? Ular bu yoqqa kelishyapti. Ha topdim. Archa orqasiga berkina qolay.

Qorbobo: - Salom meni jajji bolajonlarim. Mana, nihoyat huzuringizga yetib keldik... (ko`zi jodugarga t-di). Hap sanimi Jodugar, shoshmay tur. Bu yergayam kepsanda-a. Hech yomonladingmi qo`ymading-da....

Jodugar: (yelkasini qisib): - Kechiring, Qorbobo, kechiraqoling, bayram kechangizda men ham qatnashay.

Qorbobo: - Ha, mayli. Bu oxirgisi....

Jodugar: (chekkaga chiqib o`ziga-o`zi gapiradi).

- Voy, laqma Qorbobo-yey gaplarimga ishonib, meni kechirdiya. Shoshmay tursin, Yana bi-ir boplay.....

Qorbobo oldiga stul ko`targan bola Q.Temur keladi.

Qorbobo: siz uzoq o`rmonlardan, tog`lardan oshib huzurimizga yetib keldingiz? Endi o`tirib dam oling. Bizni chiqishlarimizni tomosha qiling.

Qorbobo: Mayli bolalarim. Unday bo`lsa men sizlarni she`r, qoshiqlaringizni tomosha qilaman. Bolalarga murojaat qiladi. Tomosha qilamizmi. – Ha.

Boshlovchi: Bobojon endi sinfimizning a`lochi, tartibli o`quvchi sizga she`r aytib berishadi. Shahnoza, Azamat, Sarvinoz, Lobar, Nasiba, Mahliyo she`r aytishdi.

Qorbobo: Barakalla bolalarim, meni xursand qildingizlar.

Boshlovchi: Qorbobojon bizning bolalar qo`shiqlar ham biladilar, ularni eshiting. Shahnoza “Qor” qo`shig`ini aytadi.

Yoz o`tdi, qish o`tdi qish yetib keldi. Bolalar.... **Qorbobo** ularni maqtadi.

Qorbobo: - Barakalla, bolalarim meni juda hursand qildilaring.

Boshlovchi: Aziz mehmonlar, qadrli bolalar. Yangi 2007 yilingiz qutlug` bo`lsin! Men sizlarga uzoq-umr, sihat-salomatlik, o`qishlaringizda ulkan yutuqlar tilayman.

Yana qo`shiqqa navbat beriladi.

Sinf o`quvchilari “Archa” qo`shog`ini kuylashadi. Hamma raqsga tushadi.

Shu paytdan foydalanib **Jodugar Qorboboning** gapini yashirib qo`yadi.

Qorbobo: Yashang bolalarim, endi men sizlarga sovg`alarimdan beraman deb (gapini qidiradi). – Voy qopim qani?

Qorqiz: - Hozir shu yerda turgan ediku.

Qorbobo: - Ha bu yana **Jodugarning** ishi bo`lsa kerak. Qani bolalarim u yoq, bu yoqni ko`zgan kechiringlar-chi. **Qorbobo** (tomoshabin bobolardan so`raydi). Sizlar ko`rmdingizmi?

Bolalar: - Ha qopni **Jodugar** oldi. Shu payt sahnaga Jur`at bilan **Qo`chqorvoy** qop ko`tarib kirib keladilar.

Jur`at: Bobojon, bobojon mana biz topdik qopingizni, biz topdik. (xalloslaganacha aytadi).

Qorbobo: Ho`sh u qayerda ekan?

Qo`chqorvoy: Anavi yerda turgan ekan, u yerga bekitishibdi. Bu Jodugarning ishi. Buni Jodugar yashirgan.

Qorbobo: Mayli bolalarim, muhimi qop topildi. Jodugarning yomonligi yana amalga oshmadi. Endi biz uni kechirmaymiz.

Jodugar: (aybdor ohangda): - **Qorbobo**, men bugundan boshlab yolg`on gapirishni, yomonlikni tashladim. Chin so`zim.

Qorbobo: - Eh, seni qara-yu. Hech aqling kirmadi-kirmadi-da.

Jodugar: - Ho`p endi meni kechiraqolinglar.

Qorbobo: Mayli, bo`pti biz endi kulgini davom ettirsak. Yana navbatni qo`shiqqa bersak.

Boshlovchi: Endi men “Qor” qo`shig`imni aytib beraman. “Ustozlar” haqidagi qo`shiqni. Shahnoza, Maftuna va boshqalar ijro etdi.

Qorbobo: Rahmat bolalarim meni juda xursand qildingiz.

Boshlovchi: Bobojon bizning o`quvchilarimiz intermediya ham tayyorlab kelishgan. Qatnashadilar.

Onasi: buvisi

Buvi: Oltinoy

Xolposhsha: Shahnoza

Madi: Muhammadjon

Halima: Diyor.

Salima: Q.Temur.

Karima: E.Azamat

Nazira: Lobar

Intermediyani zo`r qiziqish bilan tomosha qildilar.

Shu payt boshiga 2007, 2006 yozilgan bolalar kirib kelishdi.

2006 – Nodira

2007 – J.Azamatlar yangi yil bilan tabrikladilar.

Ertalik oxirida **Qorbobo** va **Qorqiz** bolalarga ertak aytib, qaysi ertakdan ekanini so`radi. Tomoshabinlar ertakni topishdi. So`ng yana qo`shiq va raqslar bo`ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boshlang`ich ta`lim oynomalari
2. Umumiy o`rta ta`limning Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi.
3. Ta`lim to`g`risida va Qadrlar tayyorlash milliy dasturi bo`yicha chiqarilgan

qonunlar.

4. I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi kitobi.
5. Ma'rifat va Ziyokor gazetalari.
6. Boshlang'uch ta'lim to'g'risida chiqarilgan metodik kitoblar.
7. O'z ish tajribam asosida yozganman.